

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAK NYUTON  
(1643-1727)

# 2022

## APREL

## №39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
10-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-10**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-10**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 98 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

<b>1. Atamuratova Nilufar, Atajonova Farida</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH METODIKASI .....	9
<b>2. Avezmetova Manzura, Durdiyeva Azzatjon</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI .....	11
<b>3. Avezmetova Manzura, Durdiyeva Azzatjon</b>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI.....	13
<b>4. Do'schanova Orzigel, Ibobullayeva Muyassar</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING MAZMUM MOHIYATI .....	15
<b>5. G`apurova Gulmira, Arslanova Jumagul</b>	
KITO BXONLIK - MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR .....	17
<b>6. Mamasoliyeva Guljahon Kasimovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR FIKRLASHLARI SHAKLLANTIRUVCHI DIDAKTIK TESTLARINI TUZISH YO'LLARI .....	19
<b>7. Masharipova Gulshoda, Aminova Sanobar</b>	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABALARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	21
<b>8. Masharipova Gulshoda, Iskandarova Nargiza</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH .....	23
<b>9. Masharipova Gulshoda, Mavlonova Nodira</b>	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ADABIY TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH .....	25
<b>10. Polvonova Zulfiya, Masharipova Maqsuda</b>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANТИRISH .....	27
<b>11. Курязова Диляром Рустамовна</b>	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ.....	29
<b>12. Abdulxakova Mavluda Rashidbayevna</b>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHI .....	31
<b>13. Xolmamatov Sherali Rustam o'g'li, Xabibullayev Najmiddin Muxiddin o'g'li, Norxo'jayev Botir O'tkir o'g'li</b>	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILIM FAOLIYATINI TASHKIL E'TISHNING AYRIM YO'LLARI .....	33
<b>14. Altiboyeva Surayyo Abdullayevna, Xolmatova Xabiba Xalilovna, Chorshanbiyeva Shaxnoza Shakirovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	35
<b>15. Daniyorova Zulxumor Ishbayevna, Daniyorova Saodat Ishbayevna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR.....	37
<b>16. Eshqobilova Sarvinoz Mengnimurot qizi</b>	
NUTQ O'STIRISH FAOLIYATLARI JARAYONIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TAFAKKURINI RIVOJLANТИRISH.....	39
<b>17. Isomidinova Sayyoraxon Nematovna</b>	
DARS MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH .....	41

## **МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT**

---

<b>18. Mirzaliyeva Gulhayo Ergashbay qizi</b>	
O'QUVCHILARNI HAR TOMONLAMA YETUK BO'LIB KAMOL TOPISHIDA SPORT TO'GARAKLARINING O'RNI .....	43
<b>19. Musayeva Makhsuda Akromkhonovna</b>	
SOME EFFECTIVE ACTIVITIES BASED ON IMPROVING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE.....	44
<b>20. Orazshaeva Ziywar Satullaevna</b>	
TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI.....	46
<b>21. Risboyeva Umida Zulpikorovna</b>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISH USULLARI.....	48
<b>22. Salamova Muqaddas Abdusamadovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA TASHKIL QILISH.....	49
<b>23. Tursunova Nodira Bahodirjon qizi</b>	
ONA TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	51
<b>24. Yakubova Gulgira Abdujabborovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH .....	52
<b>25. Низамова Нодираxon Бурхондиновна</b>	
К МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ .....	53
<b>26. Abdullayeva Gulsara Abdikarimovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING VAZIFALARI VA USULLARI .....	55
<b>27. Alimjanova Dilbar Ilxomovna</b>	
O'ZBEK TILI darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.....	58
<b>28. Allaberganova Marifat Kuranbayevna</b>	
SAVOD O'RGATISHDA TAYYORGARLIK DAVRI VA IMLO USTIDA ISHLASH METODIKASI .....	60
<b>29. Batirova Shaxnoza To'xtaboy qizi</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH .....	62
<b>30. Bobojonova Zulayxa Yangibayevna, Begliyev Sanjar Reymbergenovich</b>	
MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USULLARI .....	64
<b>31. Hasanova Malohat</b>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	66
<b>32. Jumatova Mohira Qurbanbayevna, Begliyev Sanjar Reymbergenovich</b>	
TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM YONDASHUVLARINI QO'LLASH .....	68
<b>33. Mangliyeva Feruza Baxtiyarovna, Xodjayeva Sevara Shuxratovna</b>	
TALIM JARAYONIDA STEAM YONDASHUVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	70
<b>34. Qurbanova Ra'no Cho'liyevna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINING TURLARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR .....	72
<b>35. Raxmatova Dilbar Anvar qizi</b>	
AUDITORIYADAN TASHQARI O'TKAZILADIGAN TARBIYAVIY TADBIRLAR ORQALI TALABALARDA YETAKCHILIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IMKONIYATLARI .....	73
<b>36. Sharapova Gulshanda Sharifovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI TINISH BELGILARINI ISHLATILISHI BILAN TANISHTIRISH METODIKASI .....	75

## **МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT**

---

<b>37. Tursunova Dildora Abdulhoshimovna, Turg'unova Latofat Abdumutlibovna</b> FARZAND TARBIYASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA MILLIY QADRIYATLAR.....	77
<b>38. Ubaydullayeva Muslima Abdullaxat qizi</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA TASHKIL QILISH.....	79
<b>39. Азиза Умматова Абдурашидовна</b> “СҮФИ ОТА” МЕММОРИЙ ЁДГОРЛИГИ .....	81
<b>40. Азимова Динара Собитхоновна</b> ОБ АКТУАЛЬНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ .....	83
<b>41. Бобаназарова Шахло Хамзаевна</b> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА .....	85
<b>42. Данилова Елена Петровна</b> МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО РАБОТЕ СО СЛОВАРНЫМИ СЛОВАМИ.....	87
<b>43. Пўлатова Нилюфар Рахматуллаевна</b> ТАРИХ ТАЪЛИМИНИ ТЕХНОЛОГИК ТАШКИЛ ЭТИШ .....	90
<b>44. Раҳманова Шахло Юлдашевна</b> МИНИТЕКСТ КАК СОВРЕМЕННОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СРЕДСТВО .....	92
<b>45. Юсупова Хилола Каримжановна</b> MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH ASOSLARI .....	93
<b>46. Jumanova Mukaddam Maxsadovna, Begliyev Sanjar Reymbergenovich</b> ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA MUAMMOLI VAZIYAT USULINI QO'LLASH METODIKASI.....	96



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH METODIKASI

**Atamuratova Nilufar,**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
12-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: +998974584827

**Atajonova Farida,**

Xorazm viloyati Xonqa tumani  
8-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: +998919950270

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang'ich ta'limning o'rni, darslarni tashkil etishda turli metodik vositalar, axborot kommunikatsiyalaridan, ularning yoshi va qiziqishlariga mos didaktik o'yinlar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so'z yuritiladi

**Kalit so'zlar:** metod, pedagogik texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, didaktik o'yinlar, interfaol usullar.

Farzandlarimizning yuksak intelluktual salohiyatli, har tomonlama yetuk va barkamol shaxs bo`lib ulg`ayishi ko`p jihatdan umumta`lim muassasalarida beriladigan ta`lim-tarbiyaga bog`liq. O'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang'ich ta`lim davri muhim rol o`ynaydi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz ta`lim tizimida boshlang'ich ta`lim sifatini oshirish, ta`lim standartlari, o`quv dasturlari, darslik va o`quv qo'llanmalarni takomillashirish, ta`lim jarayoniga ilg`or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda.

Boshlang'ich ta`limning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo`lgan ijobiy munosabatini, yozma va og`zaki muloqot madaniyatini shakllantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini yuzaga chiqarish, turli ma'lumotlar bilan ishlash savodxonligini oshirish, olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishi uchun samarali ta`limiy faoliyatni tashkil etishdan iborat. Bunda, avvalo, boshlang'ich ta`lim o'qituvchilarining bilimi, salohiyati va kasbiy mahorati yuksak bo`lishi, shuningdek, ta`lim jarayonida turli pedagogik texnologiyalarni o`z o`rnida va oqilona qo'llay olishi muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta`lim-tarbiyaning keyingi bosqichlariga asos – poydevor vazifasini o'tashi, ayniqsa, bu davrdagi bolalarning yoshi, qiziqishlari va psixologiyasi o'ziga xosligidan kelib chiqadigan bo`lsak, mazkur bosqichda tashkil etiladigan darslar bolalar ruhiyatiga mos, qiziqarli hamda turli o'yinlarga asoslangan tarzda tashkil etilishi shart. Buning uchun o'qituvchi darsni to`g'ri tashkil etishi, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, tashabbuskorlikka, masalalar yechimini hamkorlikda topishga, fikrni yozma va og`zaki ravishda erkin bayon etishga o'rgatib borishi, shuningdek, dars jarayonida interfaol metod hamda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan o`z o`rnida va samarali foydalana olishi muhim omillardan sanaladi. Aytib o'tilgan omillarning uyg`unligi, ya`ni o'qituvchining qobiliyati, mahorati va zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan ta`lim sifati hamda samaradorligini kafolatlaydi.

Bugungi kunda ta`lim jarayonida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo`lgan talab va e'tibor alohida o`rin tutadi. Chunki an'anaviy ta`limda o'quvchilarga faqat tayyor holda bilimlar berilgan bo`lsa, zamonaviy ta`limda o'quvchilar dars jarayonida faol ishtiroy etadi. Bilimlarini mustaqil qidirib topish, tahlil qilish va asosda xulosa chiqarishga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatiladi. O'qituvchi bu jarayonda ularni yo'naltirib, bilim, ko'nikma va malakalarini egallashga qulay ta`lim-tarbiyaviy sharoit yaratadi. Darslarni zamon talablariga mos, samarali



tashkil etish darslik hamda ular asosida yaratilgan turli metodik qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar hamda dars ishlanmalarining sifatiga ham bog'liq. Bugungi kunda maktab darsliklariga qo'yilgan talab juda yuqori. Shuning uchun ular mamlakatimizda turli darslik va o'quv adabiyotlari yaratishning ko'p yillik tajribasi hamda dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida erishilgan yutuqlarni qiyosan o'rganish, ularning eng maqbullaridan foydalanish asosida yaratilmoqda. Natijada darslik va o'quv qo'llanmalar bolalarning to'laqonli va sifatli ta'lim olishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Interfaol ta'lim, o'z xususiyatlarga ko'ra, didaktik o'yinlar orqali. Kreativ ijodkorlik asosida, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Interfaollik, avvalo, o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik – o'quvchi-o'quvchi, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlarida sodir bo'ladi. Interfaol ta'limda darslar shunday kechadiki, bunda ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilganchi bo'yicha o'zaro fikr almashtirish va umumlashtirishasosida mustaqil ravishda xulosa 56 Ноябрь 2021 10-қисм Тошкент chiqarish, shu orqali olingan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash jarayoni sodir bo'ladi. Qolaversa, bunday tarzda tashkil etilgan datslarda o'quvchilarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalariga mos didaktik o'yinlar, evristik suhbatlar, qiziqarli multimedialardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Matematika darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish va fikrlash orqali o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida multimedia ilovali dars ishlanmalari tayyorlangan.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A. G'ulomov, M. Qodirov "Ona tili O'qitish metodikasi". Toshkent. 2001-y.
2. B. Abdullayev, M. Toshpulatova. Matematika. Metodik qo'llanma. 2016-y.



**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINF DAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL  
ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

**Avezmetova Manzura**

Xorazm viloyati Xonqa tumani

8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: +998976011802

**Durdiev Azzatjon**

Xorazm viloyati Xonqa tumani

8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: +998937570475

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’lumotlarini oshirish, darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilar dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishi hamda ahloqiy kamol topishiga ko‘maklashishi hamda sinftashqari mashg‘ulotlarning afzalliklarida xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zları:** sinfdan tashqarimashg‘ulotlar, o‘quvchilar jamoalari, o‘z–o‘zini boshqarish, g‘amxo‘r munosabat, individual jamoa.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta‘lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma’lumotini oshirish va darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishi uchun, boshlang‘ich maktabda sinf mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o‘tkazish zarur. Sinfdan tashqari va mактабдан ташқари ишлар болалар билан олиб бориладиган та‘lim-tarbiya ishlarning ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarni bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta‘sir etadi. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang‘ich maktabda sinfdan tashqari ishlarni bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarning davomi bo‘ladi, ayrim vaqtarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinfdan tashqari ishlarning ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishslash, bunga qo‘sishma dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi, matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar. Ma’lumki birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtida barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3-4 o‘quvchidan iborat kichkina guruhalr bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi:

1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarni hisobga olgan holda o‘tkaziladi;

2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o‘quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o‘quvchilarning individual talablarini qanoatlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotlar murakkablashib ketsa, uni o‘tkazish uchun taxminan bir soat vaqt ajratish mumkin. Materiallar hamma vaqt o‘quvchilarning hisoblash malakalarini egallashiga muvofiq qilib tanlanadi, masalalarga kelganda esa, ular shu sinf uchun programmada ko‘rsatilgan masalalarning ko‘rinishi va tipiga qaraganda boshqacharoq bo‘lishi ham mumkin. Ziyaraklik masalalari esa bu chegaradan chetga chiqishi va shuning bilan birga masala yechishni o‘rganishga muvaffaqiyatli yordam berishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlarni orgali quyidagilar amalga oshiriladi:

- bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish;
- o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish;

**Sinfdan tashqari ishlarning shakllari:**

-Sinfdan tashqari ishlarni ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o‘stirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi



qo‘shimcha ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

-Sinfdan tashqari ishlarning ta’limiy ahamiyati – o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish.

-Tarbiyaviy ahamiyati – o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrleshiga zamin hozirlash.

Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarni erkin fikrleshga, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkillashga, dars jarayonidagi muammoli va qiyin toshiriqlarni bajarishga ko‘mak beradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf ona tili va matematika darslarida va o‘qish darslarida, sinfdan tashqari o‘qish tartibida tashkillanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karima Qosimova va boshqalar . Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2009.
2. Nurmatova M. Ifodali o‘qish to‘garagi. Til va adabiyot talimi. 1992 yil. 1son.
3. Jalilova M. Nematova G. Takrorlash mashg‘ulotlarini . Topqirlar bellashuvi tarzida otkazish. Til va adabiyot talimi 1994 yil 2-3 sonlari.



**BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK  
O'YINLARNING AHAMIYATI**

**Avezmetova Manzura**

Xorazm viloyati Xonqa tuman  
8 son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon:+99897 601 18 02

**Durdiev Azzatjon**

Xorazm viloyati Xonqa tuman  
8 son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon:+99893 757 04 75

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lism Samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich, o'yin, ahamiyati, didktik, faoliyat, aqliy, bolalar

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnama, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lism tizimida alohida o'rinn tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lism darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardanoq dars degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari kerak. Boshlang'ich sinf darslarini Samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri – darslarda an'anaviy va noan'anaviy metodlardan samarali foydalangan holda darslarni to'g'ri tashkillashtirish va o'quvchilarni kreativ fikrlash sifatlarni shakllantirishdir. O'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, dars Samaradorligini ta'minlashda darslarda foydalaniladigan qiziqarli mashqlar, didaktik o'yinlar ahamiyati kattadir. Didaktik o'yinlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nkmalarini rivojlanishiga yordam beradi. Didaktik o'yinlar intellektual metodlarning tarkibiy qismalaridan biri sifatida o'quvchini ichki imkoniyatlarni ishga tushirishga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Didaktik o'yinlar, butun sinf ishtirot etganda bolalar o'rtasida o'zaro hamkor bo'lib ishslash, o'z-o'zini boshqara bilish, diqqatni bir joyga yig'ish, sarajomsarishta bo'lish, tez tushunish va savollarga tez javob berish va boshqa tarbiyaviy xislatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday didaktik o'yinlar, o'quvchining o'qituvchiga nisbatan yotsirash xislatlarini kamaytiradi. Natijada o'qituvchi bolaga do'stga, u yoki bu masalani hal qilishda hamkorga aylanadi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar. Didaktik o'yinlar ta'limga ko'rgazmaliliginini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zları bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning boy tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobjiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mammuniyat bilan ijro etadi.

O'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi. Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirot qiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim



aniqroq va tezroq», «Bo’sh kelma», «Eng yaxshi hisobchi», «Kim turgan saf yaxshiroq», «Doiraviy misollar», «Zanjircha», «Narvoncha», «Qaysi surat bekitildi?», «Jadvalni qidirib top», «Nimani taqillatdim?», «Jim», «Bilmasvoyning xatolari», «Bu qaysi shakl?», «Zukkolar», «Zinadan tushing», «Topishmoqlar», «Zigzag», «Moychechak», “Fikrni davom ettir», «Bo’g’inlar», «Teatr», «Sonli jadvallar», «Qiziqarli kvadratlar», «Bolalar bog’chasida» «Mehmondorchilikda», «Kim epchil?», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin», «Ko’rganni eslab qolish diktanti» singari o’yinlarni o’tkazish paytida o’quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo’lishiga o’quvchilarning o’zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o’tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Har qanday interfaol usul o’quvchilarni to’g’ri va maqsadli ishlatganda mustaqil fikrlashga o’rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya — bu o’qituvchi asosiy javobgar shaxs bo’lgan ta’lim tizimining ratsional usullarini ishlab chiqaradigan jarayon. Chunki uning asosiy vazifasi o’quvchilarga tezkor, aniq va tushunarli tarzda ma’lumot berishdir. Har bir o’qitish tizmining shakllari, uslublari davr talablariga mos ravishda o’zgarishi shart.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.G’afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2009.
- 2.G‘ulomov A., Ne’matov X. Ona tili ta’limi mazmuni. –T. 1995 y



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAN  
FOYDALANISHNING MAZMUM MOHIYATI**

**Do'schanova Orzigel**

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani  
24-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: +998 93 756 06 88

**Ibodullayeva Muyassar**

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani  
24-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: +998 99 350 05 72

**Annotatsiya:** Ushbu maqolda boshlang'ich sinflar xalqaro baholash tizimlaridan foydalanishning mazmun mohiyati hamda uning zarurati haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** EGMA va EGRA, PIRLS, TIMSS.

Xalqaro baholash dasturlari boshlang'ich sinflardan boshlab amaliyotga joriy etilmoqda. Boshlang'ich sinflarda xalqaro baholash dasturlarining PIRLS, TIMSS, EGMA va EGRA turlaridan foydalilanildi.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Xalqaro baholash dasturi PIRLS dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarini qiyoslashga yo'naltirilgan. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Shuningdek, PIRLS ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta'sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi. **O'qish savodxonligi** – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Hozirgi vaqtida PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. PIRLS yosh o'quvchilarining sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita maqsadiga qaratilgan: Bular: badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish. PIRLSda har bir matn parchasi yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to'rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi. O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda aniq yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin.

To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'limganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi. O'qish darslarida PIRLS testlaridan foydalanish o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularda o'qib tushunish malakasi rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu tadqiqotning ijobjiy tomonlari bilan birgalikda salbiy tomonlari ham bor deb o'ylayman Mening fikrimcha, PIRLS tadqiqotlari uchun tanlangan matnlar 10-14 yoshli o'quvchilarining yosh xususiyatlariga biroz to'g'ri kelmaydi.



Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha yaratilgan qo'llanmalarda berilgan ba'zi matnlarni tahlil qilib, bu matnlar biroz bizning millatga to'g'ri kelmasligini guvohi bo'ldim. PIRLS tadqiqoti o'tkazilganda matnlar o'zimizning millatga moslab olinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining —Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2018-yil 8-dekabrdagi 997-tonli qarori



KITOBOXONLIK - MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR

G'apurova Gulmira,

Xorazm viloyati Qo'shoko'pir tumani  
24-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998 93 743 78 83

Arslonova Jumagul,

Xorazm viloyati Qo'shoko'pir tumani  
24-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998 93 752 23 73

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Inson ma'naviyatining sarchashmasi bo'lmish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantiirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqeа bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o'rinda xorij tajribasini o'rganish, yoshlар o'rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o'rganish kabi masalalarning ko'tarilgани g'oyatda tahsinga loyiqidir. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Bilim – aql chirog'i", "Go'zallik – ilmu ma'rifatda". Bunday hikmatli naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasbhunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezzulikka undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo'lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

Ibosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

"Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahmiyat kasb etadi". Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqr falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni



yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash’ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o‘z oilasi a’zolari ko‘magi va ta’sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a’zolarning kitobga, o’qishga munosabati katta ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onha har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o’qishda ham bolalariga o’rnak bo’lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o’qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so’rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o’rganish (aniqrog’i o’rganish) muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish

2. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>



**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR FIKRLASHLARI  
SHAKLLANTIRUVCHI DIDAKTIK TESTLARINI TUZISH YO‘LLARI**

**Mamasoliyeva Guljalon Kasimovna**  
Samarqand shahar 54- maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada didaktik test tuzish usullari yoritilgan, xususan, 3-sinf uchun geometriyadan test namunalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** *test, masofa, balandlik, tez fikrlash, “ta kam”, “ta ortiq”.*

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida turli xil tipdagi testlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, u qulay va afzalliklariga boy usuldir. Yuqori sinflar uchun tuzilgan teslardan farqli o‘laroq boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tuzilgan test savollari turli talablarga javob bermog‘i darkor. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida qo‘llaniladigan har bir testning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi bo‘lishi lozim. U o‘quvchilarning bilimini tekshirishga, tez fikrlarga o‘rgatish ulardan sinchkovlikni va darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida o‘tkazilishi kerak. Test o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojlanishini, diqqati, bilim imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Tuzilgan test o‘quvchilar bilimini oshirish, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qilishi lozim. Test savollari bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uchtadan javobga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Test savollari tuzganda ko‘pchilik o‘quvchi yo‘l qo‘yadigan xatolarni albatta test javobiga kirish darkor.

Masalan: a) o‘quvchilari ustun shaklida qo‘sishda yo‘l qo‘yadigan xatolarni hisobga olgan holda quyidagi test topshirig‘i bo‘lishi kerak.

1. Qaysi holda qo‘sishi to‘g‘ri bajarilgan?

A. B. V.

b) Amallar bajarish tartibini bajarishda yo‘l qo‘yadigan xatolarning oldini olish uchun quyidagicha test tuzish mumkin.

2. Qaysi holda  $20+12: 2+2$  sonli ifoda qiymati to‘g‘ri hisoblangan?

A)  $(20+12) : 2+2=18$  B)  $20+(12:2) +2=28$  C)  $20+12 : (2+2)=23$

c) o‘quvchilar ko‘pincha «ta» ortiq , «ta» kam, «marta» ortiq va xokazo tushunchalarini chalkashtirib yuboradilar.Ularni bartaraf qilish maqsadida quyidagicha test taklif qilish mumkin.

3. Salimda 6 ta daftar bor.Karimda esa undan 3 marta ko‘pdaftar bo‘lsa, uning daftari nechta? A)  $6+3=9$  ta B)  $6*3=18$  ta C)  $6:3=2$  ta

Test savollari o‘quvchini mantiqiy fikrlashga undovchi tarzda ham tuzilgan bo‘lishi mumkin.

4. 1.1 metr 3 dm dan necha santimetr ortiq?

A) 2 sm

B) 7 dm

C) 70 sm.

Bu testda B va C javoblar aslida to‘g‘ridek tuyuladi.Lekin so‘ralayotgan javob C variantdir. Ba’zi test savollarini bolalarning hayotiy tajribalarini xisobga olgan holda tuzish kerak.

5. Terakning bo‘yi 14 metr,yog‘och ustunnniki 30 dm, tayoqnniki esa 90 dm.Eng bo‘yi balandi qaysi biri?

A.Terakning bo‘yi. B.Yog‘och ustunning bo‘yi. C.Tayoqning bo‘yi.

6. O‘quvchi bir minutda taxminan qancha masofa yurishi mumkin? A) 100 km, B) 100 m, C) 100 mm.

Bolalarning sinchkovligini oshirish maqsadida quyidagi ko‘rinishda testlar berish mumkin:

7. Qoldirilgan sonni yoz. 41,14,32,.....

A) 33; B) 23; C) 50.

(Bu yerda B javob to‘g‘ri,chunki raqamlar yig‘indisi 5 va keyingi son raqamlar o‘rnini almashtirish natijasidda hosil qilinyapti).

Har bir mavzu bo‘yicha tuzilgan nazorat testlari davlat ta’lim standartiga mos kelishi zarur. O‘quv dasturiga va matematikaga darsliklari asosida mavzular bo‘yicha testlarini tuzish orqali o‘quvchilar bilimini yanada takamillashtirishga erishish yo‘llarini izlab topish hozirgi kundagi muhim masalalardan biridir. Shu maqsadda ushbu maqolada ba’zi bir testlarni tuzish yo‘llari keltirib



o‘tilgan. Har – bir tuzilgan test variantlari 20 ta savoldan oshmasligi kerak. Chunki olinayotgan test topshiriqlari dars jaroyonida olinganligi sababli 45 minutga mo‘ljallangan va o‘quvchi har bir test savoli uchun o‘rtacha 1,5 minut vaqt sarflashi hisobga olishi inobatga olinishi zarur. Zamonaviy test texnologiyalarning turlicha tiplaridan foydalangan holda savollarni tuzish va undan ta’lim sifatini oshirishda foydalanish maqasadga muvofiq bo‘ladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. N.Abduraxmonova , L.O‘rinboyeva “Matematika 2 - sinf” T – 2016
2. S.Burxonova , O‘. Xudoyorov, Q. Norqulova “Matematika 3 - sinf” T -2015
3. A.Asimov, Sh.Jo‘rayev. “Boshlang‘ich sinf matematikasidan test savollari tuzish va testni o‘tkazish bo‘yicha metodik ko‘rsatma. Farg‘ona, 1995y.



**UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABALARIDA TASVIRIY SAN’AT FANLARINI  
O’QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Masharipova Gulshoda**

Xorazm viloyati Bog’ot tumanidagi  
8 - maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi.  
Telefon: +998 99 189 86 00

**Aminova Sanobar**

Xorazm viloyati Xonqa tumani  
8-maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi  
Telefon:+998 97 090 36 70

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim maktabalarida tasviriy san’at o’quv jarayoniga, xususan dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** tasviriy san’at, texnologiya, ilmiy, ta’lim, o’qitish texnologiyasi, dars, ko’nikma, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi.

Ma’lumki, umumiy o’rta ta’lim maktabalarida o’quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san’at o’quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo’ladigan mutaxassislar taylorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko’nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. San’at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo’ldi. O’qituvchilarning faoliyati ko‘p qirrali bo’lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo’naltiluvchi, tashkil etuvchi va baholavchi rollarini amalgalash oshirishlari kerak bo’ladi.Bunda badiiy ta’lim bosqichlarining o’zaro mazmunan bog’liqligi, uzbekiyligi va uzuksizligini ta’minlash, tasviriy san’at o’quv jarayonini tashkil etishning ilg’or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o’quv uslubiy majmualar sifatini ta’minlash, pedagogik texnologiyalarini joriy etishda o’qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo’yicha savodxonligini doimiy oshirib borish, umumiy o’rta ta’lim maktabalarida axborot resurs va zamonaviy o’quv adabiyotlari bilan ta’minotini yanada rivojlantirish, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishlarida ilg’or xorijiy tajribalarni o’rganish oliv ta’lim muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo’nalishlari tarkibini belgilaydi.

Yuqorida fikrlardan ko’rinib turibdiki umumiy o’rta ta’lim maktablar tizimini xususan, tasviriy san’at ta’lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern yangilangan, zamonaviy, tekor o’sish) o’quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, tasviriy san’at ta’limga innovatsion (inglizcha innovation yangilik kiritish) yondashuv g’oyasi ta’lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo’nalganligi, ta’lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so’nggi yutuqlari, ilg’or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg’unlashtirishga qaratilganligi bilan an’anaviy yondashuvdan farq qiladi. Bu esa o’z navbatida tasviriy san’at o’quv mashg’ulotlarini tashkil etishning samarali shakkiali sifatida ma’ruza (muammoli ma’ruza, ma’ruza-seminar, virtualtexnologik ma’ruza, vizual ma’ruza, binar ma’ruza, kirish ma’ruzasi, ma’ruza-konferentsiya, axborotli ma’ruza, ma’ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma’ruza, on-line ma’ruza) trening, videotrening, vebinalar, internet konferentsiyalar, innovatsion o’qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o’ynilar, o’quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratinini yuzaga chiqaradi.

Umumiy o’rta ta’lim maktabalarida tasviriy san’at o’quv jarayoniga, xususan dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o’ziga xos hisoblanadi. Interfaol so’zi inglizcha so’z bo’lib, «inter» o’zaro va «act» harakat qilmoq ma’nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol ya’ni o’zaro harakat qilmoq ma’nosini anglatadi. Bunday o’zaro harakat turlariga “o’qituvchi” va o’quvchining maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o’qitishda o’qituvchi o’quv faoliyatning faol tashkilotchisi bo’lib, o’quvchi bu faoliyatning sub’ekti sifatida namoyon bo’ladi. Interfaol o’qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo’lib, interfaol



o`qitish jarayonida ta`lim oluvchi o`qitishning ob`ektidan o`zaro hamkorlikning sub`ektiga aylanishi, o`quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. O`qituvchining jadal faoliyati o`quv faoliyatining asosiy ko`rinishi sifatida namoyon bo`lib, u mazkur harakatning sub`ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko`rsatadi, o`quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub`ekti o`quvchi hisoblanadi; muvaffaqiyatli o`quv faoliyatining asosiy ko`rsatkichi, uning natijasi o`quvchining fikrlash usullarini o`rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat; o`quv faoliyatning asosiy ko`rsatkichi o`quv topshiriqlari xisoblanadi. Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, innovatsion ta`lim texnologiyalarini ilm-fan va ta`lim sohasida muvaffaqiyatli qo`llash - o`quvchilarda o`z oldiga maqsad qo`yish, erkin va mustaqil fikrlash, o`z fikr-mulohazalarini bayon etish va uning to`g`riligini boshqalarga isbotlay olish, yakka tarzda va juftlikda ishlash, hamkorlikda ishlash, ijodiy fikrlash, ma'lumotni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o`z iqtidorini namoyon qilish, berilga imkoniyatlardan eng ma`qulini tanlash, bahs-munozaraga kirishish ko`nikmalarni shakllantiradi va rivojlantirib boradi.

**Foydalanimgan adabiyotlar ro`yxati**

1. J. O. Tolipova. “Pedagogik kvalimetriya”. T. 2015.
2. M.Mirsolieva., G.Ibragimova . Ta`lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. T. 2015
3. S.Abdirasilov., N.Tolipov Dasgohli rangtasvir. “Iqtisod-moliya” T.: 2010



**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AXBOROT KOMMUNIKATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH**

**Masharipova Gulshoda**

Xorazm viloyati Bog’ot tumani  
8- maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
Telefon:+998 99 189 86 00

**Iskandarova Nargiza**

Xorazm viloyati Bog’ot tumani  
8- maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda informatikani bilish o‘ta muhim ahamiyat kasb etganligi bois fanlarni o‘qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or usullarini qo‘llash ta’limdagi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

**Kalit so‘zlar:** axborot-kommunikatsion texnologiyalar, animatsion video, audio yozuv, elektron qo‘llanma, animatsiya, interfaol usullar.

Bugungi kun o‘qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas’uliyatli vazifa yuklangan bo‘lib, ta’lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo‘lib, ta’limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o‘quvchilarda o‘z faniga qiziqish uyg‘otishlari, hurmat-ehtirom tuyg‘ularini shakllantirib borishlari talab etiladi. Ta’limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o‘rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini kengaytirish, ma’naviyaxloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta’limiy tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi.

Bu borada ta’lim-tarbiya jarayoniga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondashuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan biri, axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib dars o‘tishda mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi. Zamonaviy kompyuterlarni boshqara olish malakasiga ega bo‘lish har bir yosh avlodga zarurdir. Shuning uchun, umum ta’lim muktablarida Informatika fanining bиринчи va muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda aniq bir fikrlash usulini shakllantirishdir.

O‘qitish shakli va usuli yosh o‘quvchilarning fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Masalaning qiyin tomoni shundaki, bir tomonдан o‘quvchining fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularga zamonaviy kompyuterlar olami haqidagi bilimlarni qiziqarli va uyg‘un ko‘rinishda berishdir. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish, ona tili, ingliz tili, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko‘rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan: ingliz tili fanlarida katta ekranda harflarni, so‘zlarni bir-biriga qo‘sib o‘qish, so‘ngra kichik ertak va hikoyalarni o‘qish, harflarni to‘g‘ri va chiroyli yozish; matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli o‘yinlar tashkil qilish; tabiatshunoslik fanidan tabiatdagagi hodisalar haqidagi sodda slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin. Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o‘quvchining og‘zaki nutqini rivojlanishiga, og‘zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchiga katta yordam beradi. O‘quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o‘tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Kitob.uz saytida 1-4 sinf o‘quvchilari uchun deyarli barcha fanlarning elektron darsliklari mavjud. Ammo ular matn va ovoz shaklida taqdim etilmagan.

Elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida, slayd-shou ko‘rinishda berish maqsadga muvofiq. Audio va video axborotlarning o‘zaro birgalikda qo‘llanishi o‘qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi. Elektron darslikdan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o‘quv materiallari o‘quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlardan o‘rinli foydalaniladi. Bu



kabi texnologiyalarni qo'llashda, dars va mashg'ulotda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni nazarda tutilganiga bog'liqdir. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining muammoli ta'lim yo'nalishi keng qamrovli bo'lib, o'quvchilarni o'ylashga, muhim xulosalar chiqarishga qaratilgan. Dars jarayonida AKT ning afzalliklari va kamchiliklarini T sxemasi ko'rinishida tasvirlanishi.

Dars jarayonlarida o'qitishning muammoli topshiriqlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish- o'quvchilarning mustaqil tadqiqotchilik faoliyati oshirish bilan birga tashabbuskorlik tuyg'ulari ortib, o'quvchilar o'z-o'zini boshqaruvi amalga oshadi, yaratuvchanlikka undaydi, yaratuvchanlikni o'rgangan bola boshqa har qanday sohaga hech qiyinchiliklarsiz erishadi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. R. R. Boqiyev. "Informatika" fanini kasbiy sohalarga yo'naltirib o'qitish metodikasi. Metodik qo'llanma. T.: TDPU, 2012 y.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: TDPU, 2003 y.
3. Yoldoshev J.G, Usmonov C.A, "Pedagogik texnologiya asoslari" Toshkent-2004y



## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ADABIY TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

**Masharipova Gulshoda,**

Xorazm viloyati Bog’ot tumani

8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: +998991898600

**Mavlonova Nodira,**

Xorazm viloyati Bog’ot tumani

8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada adabiy ta’lim metodlarining izohi hamda ushbu metodlardan boshlang‘ich ta’limda foydalanishning samaralari va istiqbollari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiyalar; boshlang‘ich ta’lim, o‘qitish metodlari.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoni kuch surf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvni talab etadi.

Shuning uchun ta’lim tizimini samarali tashkil etishda zamonaviy o‘qitish metodlari-interfaol metodlar, innovasion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli bo‘lishlarini ta’minlaydi. Buning uchun darslarimizni ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda yangi uslub bilan tashkil etishimiz zarur. Yangilangan ta’limda o‘quvchini har tomonlama rivojlantirib, bilimdanbilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir. Pedagogik tehnologiya – shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, o‘quvchilarda hurfikrlik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimi shakllantiriladi. Har kuni yurtimizga yangilik, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf darsliklari uchun video ilovalar, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dars ishlamalar yaratilgan.

Masalan, 1-sinf “O‘qish” darsligining multimediali ilovasiga 42ta animatsiya, 16ta videolavha, ta qo‘sish, 20 ta lug‘at ishi, 43ta o‘yin, 15ta test topshiriqlari kiritilgan. Multimediali ilovasining 1-sahifasida o‘quvchilar qo‘lidagi guldastada 21ta darsning soni (taqvim, mavzu, reja asosida) ko‘rsatilgan. O‘qituvchi dars raqami ustidagi tugmachani bosganda, ekranda, “O‘qing va kuzating”, “Lug‘at”, “Test”, “O‘yin”, “Mashq”, “Video”, “Dam olish daqiqasi” kabi belgilar aks etadi. Mana shunday multemidiali ilovalardan foydalanim darsni olib borish bilan bir xil qolipda dars o‘tishning o‘ziga xos farqlari, afzalliklari va qulayliklari mavjud. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarini ijobjiy tomonga o‘zgartiradi, olayotgan bilimlarini mustahkam egllashga va ularni amalda o‘zlari erkin va mustaqil foydalana olish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi, jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatadi.

Darsliklarda berilgan videolavhalar o‘quvchiga tushunarli, sodda va ravon qilib ishlangan. Bu esa mavzuni tez va oson tushunib olishlariga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Masalan, “Nafas olish mashqi”, “Tropik yomg‘ir” o‘yini, “Qarsak” o‘yini kabilarni keltirish mumkin. Bularidan tashqari o‘qish darslarini bevosita ingliz tili bilan bog‘lab “Dam olish daqiqasi” ni tashkil etish mumkin. Bundan tashqari, “O‘qish” darsarida foydalilaniladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin: “Suhbat”, “Evristik”, “Aqliy hujum”, “Baliq skleti”, “Nilufar gul” va boshqalar. Masalan, Mirkarim Osimning 4-sinf “O‘qish” darsligida kiritilgan “Kitobga ixlos” hikoyasini evristik metoddan foydalangan holda o‘rganishni quyidagicha tashkil etish mumkin. Muallif hikoya yaratdagi qiyinchilik, urush davri inson ma’naviyatini sinovdan o‘tkazuvchi bir vosita ekanini, shunday qiyin paytlarda ham ilm kishilari kitobdek xazina uchun jonlarini ham qurban qilishga tayyor ekanliklarini buyuk qomusiy olim bobomiz Ibn Sino misolida namoyish eta bilgan. Hikoya matnnini to‘liq o‘qib chiqish uchun darsning 23-25 daqiqasi sarflanadi. So‘ngra asar qahramonlari o‘quvchilar bilan to‘liq tahlil qilinadi. O‘quvchilar badiiy asar qahramonlarini tashqaridan kuzatishga emas, ichkaridan tuyishga odatlantirilsalar maqsadga muvofiq bo‘ladi.



O‘quvchilar xususiy faktlarni o‘zlashtiradilar, so‘ngra o‘quv xarakteridagi umumlashma xulosalarni chiqaradilar. Ikkinchi variantda o‘qituvchi o‘quvchilarning oldiga xususiy jihatlardan umumiyl holatlarga yetaklovchi, umumiyl xulosalarga olib keluvchi muommoli masala qo‘yadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak adabiy ta’lim metodlaridan boshlang‘ich ta’limda foydalanish, o‘quvchilar dunyo qarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, o‘quvchi nutqini rivojlantirish, o‘z fikrini erkin ayta olish, umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqara olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Tolibova J. Pedagogik texnologiyalar. – T.: 2005
2. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: 2018
3. Yo‘ldoshev Q, Madayev O, Abdurazzoqov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: 1994



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Polvonova Zulfiya

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani  
8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Masharipova Maqsuda

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani  
8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlanirishda ertak, tez aytish va didaktik o‘yinlardan foydalanish yoritib berilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarinin nutqii o‘stirishning o‘ziga xo xususiyatlari yoritib berilgan. O‘quvchilarda og‘zaki nutqni rivojlanirishga oid metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Og‘zaki nutq, rivojlanish, ma’naviy yuksalish, lug‘at ishi, ijodiy fikrlash, didaktik o‘yinlar, kreativ faoliyat, o‘zaro hamkorlik.

Muloqot madaniyatining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni kishilarni o‘rtasidagi tinchlik va osoyishtalikning eng muhim tamal toshi ekanligi avvaldan ma’lum. Bolalarda og‘zaki nutq nutqning so‘zlashuvi shaklini reali. Nutq-bu insonning eng oliv murakkab ruhiy vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Inson tashqi olamdagagi predmetlar va hodisalarini sezgi organlari yordamida va nutq vositasida idrok etadi. Ma‘lumki, so‘zlashuv tili nutq o‘stirish dastlabki bosqichi takomillashib boradi. So‘zlashuv tili esa o‘qilgan matnlarni og‘zaki hikoya qilishda namoyon bo‘ladi. So‘zlashuvga o‘rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o‘qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga ma’naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. O‘qish nutq o‘stirish ta’lim-tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalaridandir. O‘qituvchinig turli fanlarini o‘qitishdan maqsadi o‘quvchilarining nutq madaniyatini nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi nutqi o‘quvchilar uchun na‘munadir.

O‘quvchilarnig nutqi ravon, tushunarli bo‘lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishda e‘tibor berish zaruz. Nutq ichki va tashqi ko‘rinishga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichiga gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirotkini talab qilmaydi. Shuning uchun bu nutq o‘z-o‘ziga qaratilgan sanaladi, uni nazorat qilib bo‘lmaydi. Ichki nutqa og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo‘lgan faol nutq bo‘lib, u og‘zaki va yozma ko‘rinishiga ega.

Boshlang‘ich sinfdan kichik yosh bolalardan o‘quvchilar o‘qiydilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqidagi kamchiliklarini tanqid qilish ehtiyyotkorlikni talab etadi. O‘qituvchinig nutqi o‘quvchilarni o‘ziga ergashtirib, ularga ham yoqimli nutq madaniyatini tarbiyalaydi boshlang‘ich sinf “o‘qish kitobi”da “ertaklar yaxshilikka yetaklar” bo‘limi berilgan. Unda keltirilgan ertaklar bolalarni odob-axloqga o‘rgatishi, ma’naviy jihatda rivojlanirishi muhim ahamiyatga egadir. Masalan, “uch o‘rtoq” ertagidagi dexqon va boy obrazlari o‘quvchilar ongida yaxshi va yomondan nafratlanish, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasvvur hosil qildi.

Maqtanchoqlik, adolatsizlik, och ko‘zlik juda yomon odat ekanligi, saxiylik, do‘stga mehribon bo‘lish rostgo‘ylik insonning manaviy yuksalishiga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirish ishlari ularning lug‘atini boyitish bilan bog‘liqdir.

O‘qituvchi o‘z nutqinig bolalarga qanday ta’sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo‘lganini hisobga olish kerak. Agar o‘quvchilar darsga e‘tiborsiz o‘tirsalar, demak, o‘qituvchi nutqining ta’sir kuchi sust. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlanirishda tez aytishning o‘rni ham beqiyosdir, Xalq og‘zaki ijodi turlaridan biri tez aytish ayrim nutq tovushlarining ko‘p qaytarilishi yoki tovushlarning so‘z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi. Tez aytish – o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo‘lgan qiyofadosh so‘zlardan tuzilgan jumlalar qo‘llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so‘zlar ritm, urg‘ular bilan tez aytildi. Tez aytishda har bir tovush o‘z o‘rnida to‘g‘ri, ravon talaffuz etilishi shart. Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini so‘z boyligini oshirishga va nutqning ravon bo‘lishiga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda tez aytishlardan turli tadbirlarda, dars jarayonida,



dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

Masalan: Asalari asalini ayiqdanayamadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zak inutqini o‘stirish rejali tashkil etilsa,bu sohadagi tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib borilsagina,u o‘quvchining butun vujudida,uning xususiyatiga tasavvuriga,iroda va xarakteriga,nihoyat fikrlash faoliyati va qobiliyatiga ta’sir etib nutqning ravon ,ifodali bo‘lishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A. Mirzaahmedov. «O‘quvchilar faolligini oshirishda noan’anaviy darslar»., Til va adabiyot ta’limi jurnali,, 2016 y. 3-son.
2. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari» T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2004 y.



## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ.

Курязова Диларом Рустамовна.  
Учительница начальных классов,  
категории II школы № 3  
Хорезмского вилоята город Хива  
+998994281341 Dilya23@bk.ru

**Аннотация.** Статья посвящена актуальным проблемам математики. Автором проанализированы характерные особенности дифференциации обучения математики, связанные с отбором обязательных предметов и предметов по выбору. Выявлена и обоснована необходимость учить детей составлению задач. Это обосновывается тем, что процесс составления задач как никакой другой способствует развитию навыков логического мышления, формирует подлинные математические знания. Особое внимание обращается на роль контроля в преподавании математике. Подчёркивается неоправданность традиционных подходов к контролю. Работа нацелена для педагогов, заинтересованных в улучшении состояния преподавания математики.

**Ключевые слова:** дифференциация, роль, математика, школа, преподавание

Актуальные проблемы преподавания математики в современной школе заключаются в пересмотре огромного опыта, связанного с активизацией обучения школьников. Проблема воспитания творческой активности школьников до сих пор не теряет своей актуальности. Решение связано с преодолением многочисленных противоречий и ряда проблем, присущих процессу обучения. Разнообразие путей получения общего образования служит мощным рычагом дифференциации обучения, средством более полного учета интересов и возможностей учащихся. Одна из основных форм дифференциации в старших классах выражается в сокращении обязательных предметов и введении предметов по выбору. Проблемы, которые при этом встают, связаны с отбором обязательных предметов и предметов по выбору, с определением учебного времени на эти группы предметов. В связи с этим различные формы дифференциации станут жизнеспособными, если будут подкреплены соответствующими учебниками. Более способным учащимся предпочтительны отдельные учебники, менее способным – интегрированные. Но на сегодняшний день в наших школах их практически нет. В каждой школе имеется немало учеников, у которых нет математических наклонностей, желающих выразить себя совсем в других областях знаний. И дифференциация в обучении должна выразиться в уважении к праву учащегося на выбор доступного ему содержания математического образования [5].

На мой взгляд, математическая подготовка в школе должна быть достаточно фундаментальна для тех, кто собирается изучать на достаточно глубоком уровне физику, технические научные и прикладные дисциплины. Эти ученики должны с легкостью и изяществом производить в этих дисциплинах все математические выкладки. Но обучение на более высоком уровне должно включать базовый уровень как часть. Сегодня этот базовый уровень обеспечен стандартами и минимумом содержания образования. Нельзя обойти проблему обучения составлению задач – очень мало мы занимаемся ею при обучении математике. А ведь именно этот процесс как никакой другой способствует развитию навыков логического мышления, формирует подлинные математические знания. Еще одна очень важная проблема: стране нужны одаренные люди. Поэтому так важно распознать способности учащихся, развить их, дать почувствовать ответственность перед обществом, перед самим собой за этот дар природы. Дифференциация обучения – один из мостков к школе будущего, какой она видится сегодня нашему обществу, всем нам. Важным звеном процесса обучения математике является контроль знаний и умений школьников. От того, как он организован, на что нацелен, существенно зависит эффективность учебной работы. Именно поэтому уделяют серьезное внимание способам организации контроля и его содержанию. В настоящее время принципиальные изменения в школе связаны в первую очередь с актуализацией дифференцированного обучения. Важнейшим видом дифференциации при обучении во всех классах становится уровневая дифференциация. Ее основная особенность состоит в дифференциации требований к знаниям и умениям учащихся: явно выделяется уровень обязательной подготовки, который задает нижнюю границу усвоения материала.



Этот уровень, безусловно, доступен и посилен всем школьникам. На его основе формируются повышенные уровни овладения курсом. Учащиеся получают право и возможность, обучаться в одном классе и по одной программе, выбирать тот уровень усвоения, который соответствует их потребностям, интересам, способностям. Хорошо известно, как велика роль контроля.

В зависимости от его содержания он может оказывать или организующее влияние на усвоение знаний школьниками, или же, напротив, дезориентировать учебный процесс. В настоящее время получение базового образования стало необходимым для каждого члена общества. В соответствии с этим вся методическая система перестраивается в плане обеспечения глубокой дифференциации обучения, учитывающей интересы всех групп школьников. Поэтому традиционный подход к контролю становится педагогически неоправданным. Прежде всего, это: х недостаточная информативность традиционного контроля и, главное, невозможность получить достоверные сведения о наличии у школьников опорной подготовки; х педагогически неверно ориентированная система оценивания: она строится по методу «вычитания», т.е. точкой отсчета является оценка «5», и в зависимости от недочетов и ошибок, допущенных учеником, оценка снижается. Путь, который проходит такой ученик при оценивании «от максимального уровня» методом «вычитания», означает путь поражений, а не движение вперед от одного, пусть небольшого достижения к другому. Альтернативной рассмотренному является оценка методом «сложения», в основу которого положен минимальный уровень общеобразовательной подготовки.; переориентация на контроль и оценку по методу «сложения» (отметка должна выставляться за достижение определенного уровня подготовки – они достаточно четко определены школой профессора В. Симонова); х усиление дифференцирующей силы контроля; х ориентация на итоговые результаты обучения [4]. Главным в своей деятельности на каждом этапе обучения считаю педагогическую помощь и поддержку – облегчение и одновременно стимулирование процесса учения для учащегося. На всём протяжении учебного процесса демонстрирую детям своё полное к ним доверие, помогаю учащимся в формулировании и уточнении целей и задач, стоящих как перед группами, так и перед каждым учащимся в отдельности; исхожу из того, что у детей есть внутренняя мотивация к учению; выступаю для каждого ученика как источник разнообразного опыта; принимаю каждого ученика таким, какой он есть.

#### **Библиографический список**

1. Бурбаки Н. Очерки по истории математики / Н. Бурбаки. – М.: Изд-во Ин. лит., 1972. 292 с.
2. Гнеденко Б.В. Математика в современном мире / Б.В. Гнеденко. – Издательство Просвещение. – М.: Просвещение, 1980. 128 с.
3. Кудрявцев Л.Д. Мысли о современной математике и ее изучении / Л.Д. Кудрявцев. – М.: Просвещение, 1977. 112 с.



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHI

**Abdulkakova Mavluda Rashidbayevna**

Namangan viloyati Namangan shahri  
51-umumiy o'rta ta'lif makkabining  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini psixologiyasini o'rganish bilan birga bolada shaxs sifatlarini shakllantirish masalasini ko'rib chiqamiz. Bolani ilk maktab kunlaridan boshlab o'qishga mehr qo'yishi uchun usllarni ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Bola psixologiyasi, pedagog malakasi, shaxsiy sifatlar.

Yosh bola o'sishi natijasida ularda shaxs sifatlarini rivojlantirish muamosi paydo bo'ladi. Buni muamo deb atash xato albatta, agar ota ona va pedagog murabbiylar bolaga tog'ri yo'nalish berib unga yoshiga qarab muomala qilsa bu muamoga aylanmaydi. Bu holatga yo'l qo'ymaslik uchun o'qituvchi pedagogdan yuksak tajriba va albatta sabr bardosh kerak bo'ladi. Chunki endi maktabga chiqqan o'quvchida hali ham bola psixologiyasi bo'ladi. Pedagog va psixologlarning olib borgan tadqiqotlari o'qishga bo'lgan qiziqishlaming paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy sharoitini ajratish imkonini beradi:

1. O'quv faoliyati shunday tashkil etilishi kerakki, bola unda faol Ishtirok etsin, yangi bilimlami mustaqil tarzda qidirishi va "topishi"ga undalsin, muammoli xarakteriga ega bo'lgan savollarni yechsin. 2. O'quv faoliyati turli xil bo'lishi kerak. Bir xillikka ega bo'lgan materiallar va bir xil usullar bolalarni tez zeriktirib qo'yadi. 3. Bola berilayotgan materiallarning kerakliligi va ahamiyatliligini tushunishi kerak. 4. Yangi berilayotgan material ilgari o'zlashtirilgani bilan yaxshi bog'langan bo'lishi kerak. 5. Juda yengil bo'lgan va o'ta murakkab material qiziqish uyg'otmaydi. O'quv topshiriqlari bog'cha yoshidagi bolalar uchun qiyin, lekin imkoniyati etadigan darajada bo'lishi kerak. 6. Bolaning barcha yutuqlarini ijobjiy baholash lozim. Ijobiy baho bilishga nisbatan faollikni rag'batlantiradi. 7. O'quv materiallari yorqin va emotsiyal bo'lishi kerak.

Shunday bo'lsa ham bolani muktab sharoitiga moslashishi qiyin jarayon hisoblanadi, sababi Uyda, bir tomonidan, u maktabgacha o'yinlarga qaraganda o'z hayotiga va kasbiga ko'proq hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Shu bilan birga, unga yanada qattiq talablar qo'yiladi. Maktabda asosiy odam o'qituvchi. Barcha asosiy talablar undan kelib chiqadi. O'qituvchi bilan munosabatlar umuman ota-onalar va bolalar bog'chasi o'qituvchisi bilan bo'lgan munosabatlarga o'xshamaydi. Avvaliga, bola uchun o'qituvchi begona, va bola beixtiyor uning oldida qo'rquv va qo'rkoqlikni boshdan kechiradi. Boshqa talabalar bilan munosabatlar ham boshida juda oddiy emas: bolalarning do'stlari yo'q, bola bilan muloqot qilishga odatlangan do'stlar yo'q. Hamma bolalar maktab hayotiga moslashish davrini osonlikcha boshdan kechirmaydilar. Bu pedagogdan yuksak tajribani talab qiladi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar (shuningdek, maktabgacha yoshdagagi bolalar) asta-sekin haqiqiy ijtimoiy munosabatlar tajribasiga kiritilib, taassurotlar toplash, hayotda navigatsiya qilish va o'zlarini yaratish istagi bor. Bolaning diqqatini uning atrofidagi dunyoga, uning faol bilimiga, estetik va axloqiy bahosiga qaratadi. Yosh o'quvchilar boshqa odamdagagi axloqiy fazilatlarni, ayniqsa mehribonlik, g'amxo'rlik, e'tibor va qiziqishni qadrlashlari va qadrlashlari mumkin. Ko'pincha ular ushu fazilatlarni amalda baholaydilar, ko'pincha inson go'zalligini faqat tashqi, jozibali kiyim, xatti-harakatlar va xatti-harakatlarda ko'rishadi. Shu bilan birga, ularning o'z-o'zini anglash darajasidan qat'i nazar, boshlang'ich maktab yoshidagi davr (shuningdek, maktabgacha yoshdagagi) axloqiy fazilatlarni shakllantirish va haqiqatni estetik idrok etish nuqtai nazaridan deyarli hal qiluvchi omillardan biridir. Bu yoshda dunyoga munosabatlarning eng jadal shakllanishi, shaxsiyat shakllanishini amalga oshirish mavjud. Ular ishda har xil usullar bilan (tez yoki sekin) ishtirok etadilar, yuzlab o'qituvchilar darsda o'zlarining shaxsiy, kognitiv va aqliy faoliyatning o'ziga xos uslubi, e'tibor, idrok, xotira, xayolot xususiyatlariga ega ekanliklarini tushuntirganlarini idrok etadilar va tushunadilar. Ular aqliy rivojlanish va qobiliyatlarda, xarakterda, moyillikda, qiziqishlarning barqarorligida, didga,



qo'shimchalarga, ideallarga, o'rganish motivlarida, temperament xususiyatlarida farqlanadi. Ular yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklarga, maktab va individual fanlarga, o'rtoqlarga va o'qituvchilarga har xil munosabatda, tengdoshlar jamoasida turlicha pozitsiyalarga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Z. NISHANOVA, G. ALIMOVA "BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA UNI O'QITISH METODIKASI" O'zbekiston Yozavchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent — 2006
2. Karima Qosimova, Safo M atchonov, Xolida G 'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev "ONA TILI O'QITISH METODIKASI" Toshkent«N O SIR» nashriyoti 2OO9



## BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILIM FAOLIYATINI TASHKIL E'TISHNING AYRIM YO'LLARI

**Xolmamatov Sherali Rustam o'g'li**  
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya  
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi.

**Xabibullayev Najmiddin Muxiddin o'g'li**  
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya  
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi.

normurodov.oibek@mail.ru

**Norxo'jayev Botir O'tkir o'g'li**  
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya  
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi.

normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada biologiyani fanini o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun dars jarayonida o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ulami tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Didaktik o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lif texnologiyalari, modulli ta'lif texnologiyalari, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi.

Ta'lif jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lif mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlarini, hodisa va voqealaming mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rghaniladi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinish turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O'qituvchi ta'lif jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'lifi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlami amalga oshirish orqali shaxsnинг har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta'lif jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasining asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. Ta'lif mazmunining tarkibiy qismlari va ularni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi o'qitish vositalarini to'g'ri tanlash va o'z o'rnida samarali foydalanishni talab etadi. Biologiya darslarida o'rganilayotgan mavzuning mazmunitan kelib chiqqan holda ularni yoritish imkonini beradigan tabiiy, tasviriy ko'rgazmalar, ekran vositalari, o'quv jihozlari, multimedialar, elektron versiyalar va qo'llanmalardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsning mazmuni va foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar muayyan o'qitish metodlarini talab etadi. O'qituvchi o'qitish metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni, foydalanish yo'llarini yaxshi bilishi lozim. Shuni hisobga olgan holda quyida o'qitish metodlarining guruhlari haqida fikr yuritiladi. Og'zaki bayon metodlari guruhi o'z ichiga suhbat, hikoya, ma'ruza metodlarini oladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va o'qitish samaradorligini oshirish masalasi biologiyani o'qitish metodikasi fanining asosiy muammolaridan biri sanaladi. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish deganda, o'quvchilarda yuqori darajadagi motiv, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ongli ehtiyoj, natijaning yuqoriligi va ijtimoiy me'yorlarga mos xulqning paydo bo'lishi tushuniladi. Mazkur tipdag'i fayllik har doim ham vujudga kelavermaydi, faqat o'qituvchining maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatishi va qulay pedagogik-psixologik muhitni tashkil etish mahorati tufayligina vujudga keladi. Biologiyani o'qitishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirishi o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog'liq bo'ladi. Didaktikada ishlab chiqilgan har qanday texnologiya o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lif samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, lekin quyidagi texnologiyalarda mazkur masala asosiy g'oyani egallaydi: 1. Didaktik



o'zin texnologiyalari. 2. Muammoli ta'lif texnologiyalari. 3. Modulli ta'lif texnologiyalari. 4. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. 5. Loyihalash texnologiyasi. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lif samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos www.ziyouz.com kutubxonasi xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birligida, ta'lif jarayonida ta'lif beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo'llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbga yo'llash, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish, hamkorlikni vujudga keltirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Biologiyani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ulami tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadgamuvofiq. Biologiyano o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan «Keys», «Insert», «Waster», Venn diagrammasi, «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Atamalar zanjiri», «Atamalar varag'i», tezkor o'yinlar va o'zin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Biologiya kursi mazmunidagi muammoli masalalami o'qitishda «Keys»dan foydalanish yuqori samara beradi. «Keys» — case studies ingliz tilidan olingan bo'lib, jarayon yoki vaziyat degan ma'noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlami o'qitishda foydalanilgan bo'lib, hozirgi paytda o'qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlaming tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ulami hal etish uchun o'quv munozaralari tashkil etiladi. Biologiyani o'qitishda dastur mazmunidagi evolutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali «o'simliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi», «hayvonot olaming paydo bo'lishi va rivojlanishi» kabi mavzulami o'qitishda foydalanish mumkin. Ta'lif-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o'qituvchi dastur mazmunidagi muammoli mavzulami aniqlashi, shu mavzularni o'qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi, dars davomida muammoli savol-topshiriqlaming qiyinchilik darajasiga ko'ra yakka tartibda yoki o'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishlami tashkil etilishini aniqlashi, www.ziyouz.com kutubxonasi o'quvchilarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o'quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo'llarini rejalashtirishi; muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o'quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim.

Shuni alovida takidlash kerakki dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o'rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi. Insert lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'quv materialidagi asosiy g'oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo'llaniladi. O'quvchilami Insert yordamida ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o'rganiladigan o'quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O'quvchilar har bir jumlanı o'rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkinki** - biologiyani o'qitishda didaktik o'zin texnologiyasiga mansub konferensiya, matbuot konferensiyasi, ijodiy o'zin, ishbilamonlar o'yini, o'zin mashqlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining barcha metodlari, modulli, muammoli ta'lif va axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirgan holda o'z o'mida foydalanish maqsadga muvofiq.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya ta'lifi texnologiyalari. — T.: O'qituvchi, 2002. 14.
2. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. Pedagogika olyi o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. — T.: Moliya-iqtisod, 2007. 15.
3. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. — T.: «Bilim» 2004.



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARНИNГ О'RNI VA AHAMIYATI**

**Altiboyeva Surayyo Abdullayevna**

Surxondaryo viloyati Termiz shahri

22- umumiyl o'rta ta'lim  
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

normurodov.oibek@mail.ru

**Xolmatova Xabiba Xalilovna**

Surxondaryo viloyati Termiz shahri

22- umumiyl o'rta ta'lim  
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

normurodov.oibek@mail.ru

**Chorshanbiyeva Shaxnoza Shakirovna**

Surxondaryo viloyati Termiz shahri

22- umumiyl o'rta ta'lim  
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada. Pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi. Shu bilan bir qatorda mavzularni yoritilishi, o'quvchilarning o'tilayotgan mavzuni o'zlashtirilishi va pedagogik saloxiyatini oshirishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik, texnologiya, ilmiy, ta'lim, o'qitish texnologiyasi, dars, ko'nikma, ta'lim-tarbiya.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki mакtabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – mакtab.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

O'zbekistonda bozor munosabatlariiga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirdor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. Bunday faollilik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'limtarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zdautilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inalarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda



berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta'lif-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi Bugungi kunda fan-tehnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lif jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishslash qobiliyatiga bog'liq. Ta'lif tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir. Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayonining unumdoorigini oshirfidi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'limgan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzlusiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Ta'lif-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlanishiga va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi. Pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayonining unumdoorigini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkinki**, pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin. Natijada, mantiqiy bog'langan qisqa yo'llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o'quvchi ularning natijasini ma'lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta'lif maqsadini to'la amalga oshirish sari yana yangi qadamlar qo'yiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. R.A. Mavlono, M. Arabova, G'. Salohitdinova "Pedagogik texnologiya" T. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. "Fan" nashriyoti. 2008.
2. J. G'. Yo'ldosheva, F. Yo'ldosheva, G'. Yo'ldoshev "Interfaol ta'lif sifat kafolati" T. 2008.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

**Daniyorova Zulkumor Ishbayevna**

Jarqo'rg'on tumani 18- sonli umumiylar maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.  
normurodov.oibek@mail.ru

**Daniyorova Saodat Ishbayevna**

Jarqo'rg'on tumani 18- sonli umumiylar maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.  
normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining vazifalari, o'quvchilarning o'qish malakasini takomillashtirish va o'qish samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan metod va usullari haqida yoritilib ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Motivlar, metod, reproduktiv, voqeа, so'z, ibora, o'qish, didaktika, tasavvur, nutq va tafakkur.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, muktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki muktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – muktab.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Insonning shakllanishi va ma'naviy yuksalishida ona tili va o'qishning o'rni beqiyosdir. Barcha bilim va tajribalar ushbu fanlar orqali shakllantiriladi. Shuning uchun ham birinchi sinfdanoq ona tili va o'qish fanlarini o'qitilishiga alohida e'tibor qaratmoq joizdir.

O'quvchilarda ijobiy tasavvur, nutq va tafakkurni o'stirish. Qadim-qadimdan ardoqlanib kelingan kitobga mehr-muhabbatni tarbiyalash, uni e'zozlashga o'rgatish. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatish.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. O'qish faoliyati boshlang'ich sinflarda barcha fanlarda amalga oshiriladi, lekin o'qishga o'rgatish o'qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda ularning umumiylar rivojlanishi, psixologiyasini hisobga olish zarur. O'quv materialining hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromadagi o'qishni tashkil etish bolani o'qish mashg'ulotidan beziradi. O'quvchilarni qiziqarli topshiriqlar, didaktik o'yinlar asosida o'qitish o'qishga o'yin tusini beradi. Bola o'ynab charchamagandek, o'qib charchaganini sezmaydi. Didaktik jarayon uchta bir-biri bilan bog'liq komponentlardan iborat:

Motivlar, O'quvchining o'quv-bilish jarayoni, boshqarish Didaktik jarayonning samarali o'tishida bu komponentlar muhim o'rinni tutadi. 1-sinfda o'qish darslari bir qancha vazifalarni bajaradi:

O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari, bilimlarini mukammal egallashlari, hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lmagan so'zlarni bo'g'inlab to'g'ri o'qish. Bolalar hayoti bilan bog'liq bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli so'zlarni bir tekis o'qishlariga erishish. Buning uchun o'qituvchi o'qiladigan asar matnnini o'rganish jarayonida o'qilishi qiyin o'rinalarni belgilashi va o'qishni differensial usulda tashkil etishi, ya'ni o'qilishi qiyinroq o'rinalarni yaxshiroq o'qiydigan o'quvchilarga, oson o'qiladigan o'rinalarni o'qish malakasi bo'sh o'quvchilarga o'qitishni mo'ljallashi lozim. Bog'in tuzilishi murakkab so'zlarni kartonga



solib yoki xattaxtaga bo‘g’inlarga bo‘lib yozish, jo‘r o‘qitish usulidan foydalanish, so‘z ma’nosini izohlash yo‘li bilan to‘g’ri o‘qishni amalga oshirish kerak. 1-sinflarda o‘qishning ovoz chiqarib, ba’zan shivirlab o‘qish turidan foydalanish talab etiladi. Chunki o‘qituvchi o‘quvchilarning to‘g’ri o‘qishini hisobga olish va to‘g’irlash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. O‘qish darslarida turli janrdagi asarlarni o‘rganishda ham o‘quvchilarning badiiy asarni chuqur o‘zlashtirishlarini, asarni tahlil qila olishlarini ta’minlashi kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e’tibor qaratildi. O‘qish darslarida izohli o‘qish, ijodiy o‘qish, yarim izlanishli, reproduktiv metodlardan foydalanish mumkin. Izohli o‘qish boshlang’ich sinf o‘quvchilarining yoshi va saviyasiga mos bo‘lgan, ularning asta-sekin o‘sishini ta’minlaydiga metod ekanligi uzoq yillik tajribalarda sinaldi. Izohli o‘qish ongli, tushunib o‘ylab o‘qishga o‘rgatadi. Izohli o‘qish tamoyillari:

Ijodiy o‘qish asar o‘qib berilgach, o‘quvchilarda hosil bo‘lgan tasavvurni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan suhbatda, hikoyalardagi lavhalarga sarlavha topishda reja tuzishda, asar ustida ijodiy xarakterdagi yozma ish yozishda o‘quvchilarni faollashtiradi.

Reproduktiv metoddalar asar matni qismlarga bo‘linadi, yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan fikriga o‘quvchilar diqqatini tortib, uni aniqlab, yozuvchi voqeani ifodalashda foydalangan so‘z, ibora ifodalarni aniqlab ko‘rsatadi, ularga yuklatilgan ma’noni o‘quvchilar bilan birga aniqlaydi. Bular o‘quvchilar uchun bir ko‘rsatma vazifasini bajaradi. O‘qituvchining yo‘llovchi savollari yordamida bu vazifani o‘quvchilar o‘zlarini mustaqil bajaradilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘qish fanida bu metod va usullardan foydalanish o‘quvchining o‘qish malakasini takomillashtirib, mustaqil fikrlash va og’zaki bayon eta olish malakalarini shakllantirib rivojlantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang’ich ta’lim konsepsiysi.- Toshkent, 2019.
2. E. Shodmonov, G.Eshturdiyeva 1-sinf uchun darslik Toshkent — 2017yil.
3. <https://www.pv.u>



**NUTQ O‘STIRISH FAOLIYATLARI JARAYONIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI  
BOLALARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH**

**Eshqobilova Sarvinoz Mengnimurot qizi**  
Termiz davlat universitetining  
Pedagogika instituti 1-bosqich magistranti  
bek.uralov0624@mail.ru  
+998912369396

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda nutqni rivojlantirishga doir ko’rsatmalar hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini shakillantirish bilan birgalikda ularning tafakkurini rivojlantirish to’g’risida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so’zlar:** nutq, tafakkur, tarbiya, antonym, so’z, sinonim, gap, tarbiyachi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning nutqini to’g’ri rivojlantirish uchun tarbiyachilar nutqni rivojlantirish metodikasini chuqur o‘rganishi va ushbu sohaning fanga ma’lum bo‘lgan metodlarini o‘zlashtirgan bo‘lishlari hamda bu bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga nutqni o‘zlashtirish qonuniyatlarini tushunib berishlari lozim, chunki nutq – bola shaxsini to’la-to’kis rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Atrofdagilar nutqini tushunish va bolaning o‘z faol nutqi har qanday pedagogik jarayonda zarurdir[1].

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim – tarbiya berishda tevarak atrof bilan tanishtirish va nutqni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar katta o'rinn egallaydi. Bu ishlar faqat mashg'ulotlardagina amalga oshirilmasdan, balki bolalarning kundalik hayotida ham, mehnat faoliyatida va o'yin faoliyatida amalga oshiriladi.

- bolaning o‘z qarindoshlari, qo’shni tengdoshlari shaxsiga va faoliyatiga qiziqishini qo’llab-quvvatlash, birgalikdagi o‘yinlarda ularning dialogik nutqini yo’lga qo’yishga ko’maklashish;
- turli muloqot vositalari, ya’ni - so’z, yuz ifodasi (imo-ishora)dan muayyan vaziyatni hisobga olgan holda tabaqaqlashtirilgan holda foydalanishni o’rgatish;
- bolalarning ertak va kichik hikoyalarni so’zlab berishga qiziqishini qo’llabquvvatlash;
- bolani “tovush», “so’z», “gap» atamalari bilan tanishtirish kabilardan iborat[2,3].

Bola nutqining rivojlanishi, bir tomondan, tashqi ta’sirlar bilan belgilansa, ikkinchi tomondan esa uning tasodifan yuz berishi, “o‘z-o‘zidan harakatga kelishi” mumkin. Bolalarning nutqini rivojlantirishda qo’llaniladigan o‘yinli texnologiyalar mavjud bo’lib ularga quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

“Antonim so’zlar” o‘yini

Bu o‘yin katta va tayyorlov guruhlarda o‘tkazilishi mumkin. O‘yin induvidual, guruh bilan ham o‘tkazilsa ham bo‘ladi. O‘yin sharti qo‘yidagicha: Tarbiyachi bolaga bir so’zni aytadi, bola esa shu so‘zning qarama-qarshi ma’no anglatuvchisini topadi. Masalan: katta-kichik, issiq-sovuq, qattiqyumshoq, uzoq-yaqin va xokazolar. Odatta bollar o‘yin boshida bir oz qiynaladilar, aytilgan so‘zga javoban, antonim emas sinonim so’zlar bilan javob beradilar. Ammo o‘yining mohiyatini tushunib olganlaridan so‘ng abstrakt tushunchalarni ham osonlik ilan anglaydilar, hamda tezlik bilan javob berishga xarakat qiladilar. Masalan: chaqqon-yalqov, ishchan-dangasa, odobli-odobsiz va xokazolar[3,5].

“Avval nima bo‘lgan edi” o‘yini

Bu o‘yin shartiga ko‘ra bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo‘lganini aytilshlari kerak. Masalan: jo‘ja-tuxum, ot - toychoq, kapalak - qurt kabilar. Bundan tashqari bittadan ko‘p ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: non - un - bug‘doy, uy - g‘isht - loy, stol - yog‘och - daraxt - urug‘, ko‘ylak - mato - ip - paxta - chigit tarzida o‘yin davom etaveradi. Bu tarzda tashkil etilgan mashg’ulotda tarbiyalanuvchi bolalar hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o‘z fikrlarini ochiq bayon etadilar hamda boshqalarni ham hurmat qilishga o‘rganadi. [4,5].

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish davomida ularda fikrlash ko‘nikmasini hosil qilishi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari,



atrofdagilar bilan erkin fikr almashishlari talab etiladi. Maktabgacha tayyorlov guruhlari bolalarini savodga o‘rgatishda multimedia, har xil o‘yinli texnologiyalardan foydalanish, mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, bolaning eslash qobiliyatları bilan birlgilikda maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini ham rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. D.R. Babayeva. Nutq o‘sirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.
2. D.R. Babayeva, G.O.Najmuddinova. Bolalarni nutqini o‘sirish. (O’quv qo’llanmasi) Toshkent: 2020, 185 b.
3. Babaeva D.R. Nutq o‘sirish metodikasi. O’quv qo’llanma. - T.: TDPU, 2016.
4. Vaxobova F.N, Rasulova M. Sh. va boshqalar «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari».-T., 2008.
5. M.Berdiyeva, S.Bo’anova “Science and Education” Scientific Journal April 2021 / Volume 2 Issue 4. 425-429 b.



DARS MASHG‘ULOTLARIDA ZAMONAVIY TA’LIM VOSITALARIDAN  
FOYDALANISH

Isomidinova Sayyoraxon Nematovna  
Farg’ona shahar, 29-maktab o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ma’lumki, zamonaviy ta’lim vositalari – interaktiv, audio-vizual, multimediali o‘quv jihozlari – shunchaki zamonaga mos rusumga aylanib borayotgan vositalar emas, balki o‘quvchilar shaxsini rivojlantirish uchun imkoniyatdir. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim vositalaridan biri bo’lmish multimedya vositalaridan foydalanish va ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o’rnii to’grisidagi fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so’zlar:** o‘quv jihozlari, zamonaviy ta’lim vositalari, multimedia.

Zamonaviy ta’lim tizimining vazifasi esa shunchaki bilim berishdangina emas, balki o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini loyihalashtirishga yordam berishdan iborat. Har qanday nazariy bilim amaliyot bilan mustahkamlanishi zarur. Shu sababli o‘qituvchi bergan nazariy axborotlariga qo’shimcha sifatida ta’lim jarayonida amaliy, laboratoriya, loyihami faoliyat talab etiladi. Bu mustaqil tadqiqot ishlariga malaka va ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi omil bo‘lib, butun ta’lim faoliyati davomida foydalanilishi zarur. O‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalb etish, qiziqtirish juda muhim. O‘qitishni qiziqarli bo‘lishi hamda unda barcha talabalarning to‘liq fikru-zikri bilan faollashishi asosida ta’lim jarayoni juda samarali o’tadi. Bunda ko’rgazmali vositalar ham muhim o‘rin tutadi, ular axborotning turli manbalari bilan ishlash va olingan natijalarni solishtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi natijasida ta’limning universal ta’siri, uning asosida esa – foydali malaka va ko’nikmalar, nihoyat keng doiradagi salohiyatlari shakllanadi. O‘qituvchilarning an’anaviy o‘qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o‘tkazilishi uchun ko‘p vaqt ajratiladi. Bu davr ruhiga mos mutaxassis-kadrlar tayyorlashning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat o‘quvchining nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o‘quv materialini o‘zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko’nikmalarni hosil qilishga ham ko‘mak beradi.

Texnologiyalar tez sur’atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtida amaliy mashg‘ulotlar uchun laboratoriya va stendlarni har bir o‘quv yilida takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun esa qo’shimcha sarf-xarajatlar ko‘zda tutilishi zarur.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib, mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug‘iladi. Buning uchun laboratoriya stendlari va o‘quv ustaxonalaridagi mashg‘ulotlar barcha o‘quvchilar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo‘lishiga erishish lozim. Mashg‘ulotlar o‘ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo‘sinqin tarzda namoyon etishi, mashg‘ulotlar o‘tkazish va o‘qitilayotgan fanni o‘zlashtirishni, umuman, butun ta’lim jarayoni samarasini oshirishi, o‘quvchilarda o‘z egallagan bilimlariga baho berish imkoniyatini ta’minlashi zarur. Zamonaviy multimediali texnologiyalarning tatbiq etilishi yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni hal qilishda va an’anaviy o‘qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko‘mak beradi.

Hozirgi davrda oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim muassasalarida virtual stendlardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Virtual stendning o‘zi nima va ta’lim samarasini oshirishda qanday ahamiyatga molik? Virtual stend – bu o‘quv amaliy stend yoki o‘quv-malaka ustaxonasi bo‘lib, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma’lum yo‘nalishda zaruriy ko’nikmalarni hosil qilishga yordam beruvchi ta’limiy AKT vositasidir. Virtual stendlar har bir o‘quvchiga texnikaga oid o‘z kirish ko‘rsarkichlarini “o‘rgatishga”, o‘z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o‘tkazishda, uni zarur tartibda tushunish va boshqalar bilan bog‘liq vaqt yo‘qotish masalasi esa kompyuter samarasini hisobiga bartaraf etiladi. Bunda moliyaviy zaxiralarning tejab qolinishi muhimdir. Zamonaviy oddiy kompakt diskka o‘nlab, ba’zan esa yuzlab laboratoriya ishlarini joylashtirish mumkin. Endi bir dona shunday virtual laboratoriya stendi qanchalik arzonga tushishini hisoblab chiqish qiyin emas.

Bundan tashqari, ular bilan birga, ta’lim muassasalarini yalpi ta’minlash mumkin. Internetga ularish tarmog‘ining mavjudligi esa, undan ham yaxshi samara beradi. Ta’lim jarayoniga virtual stendlarning joriy qilinishi natijasida, an’anaviy ta’limga nisbatan mutaxassislarini tayyorlash



bo‘yicha ta’lim jarayonining yanada yuqori sifati ta’milnadi. Bunga avtomatlashtirilgan o‘qituvchi va test o‘tkazuvchi, tizimlar, test topshiriqlari va o‘z-o‘zini tekshirish uchun savollardan iborat ixtisoslashgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalardan foydalanish, o‘quv jarayonining uslubiy asosini tezkor yangilash hisobiga erishiladi. Bugungi kundagi o‘qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy multimedia texnologiyalari hamda ta’lim uchun turli zarur imkoniyatga ega bo‘lmoqdamiz. Bu esa ma’lum darajada turli ta’lim muassasalari mutaxassislari diplomlarining qadri yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Bugungi kunda multimedia texnologiyalari – ta’lim jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir.

Ta’lim jarayoniga multimedia texnologiyalarini joriy etish o‘quvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim shartidir. Shu sababli ham bugungi kun o‘qituvchisi tinimsiz o‘z ustida ishlashi, keng ijodiy tafakkurga ega, ilg‘or pedagogik va multimedia texnologiyalarini samarali qo‘llay oladigan shaxs sifatida o‘z kasbiy-mutaxassisligi uchun zarur fazilatlar egasi bo‘lishi davr talabidir. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi dasturiy va metodik ta’minotni takomillashtirish, moddiy baza, shuningdek, o‘qituvchi mutaxassislar malakasini oshirishni talab etadi. Multimedia vositalari pedagog-kadrlarining malakasini va mahoratini yanada oshirishlarida ham muhim ahamiyatga molikdir.

**Adabiyotlar:**

1. Aleks Muur. Ta’lim berish va Ta’lim olish: Pedagogika, Ta’lim dasturi va tarbiya. Bouling Grin shtiati Universiteti kutubxonalari, 2012. – B. 6-7.
2. Muslimov N., Usmonboeva M., Mirsolieva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. O‘quv uslubiy majmua. - Toshkent, 2016. - B. 70-71.



## O'QUVCHILARNI HAR TOMONLAMA YETUK BO'LIB KAMOL TOPISHIDA SPORT TO'GARAKLARINING O'RNI

Mirzaliyeva Gulhayo Ergashbay qizi

Ohangaron tumani 18-umumi o'rta ta'lim maktabi

I-toifali jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Tel: +99899 986-23-26

**Annototsiya:** o'quvchilarni bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, sportga qiziqishlarini orttirish, ularni chaqqonlikka, o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishga, bir-biri bilan hamjixat va do'stona munosabatda bo'lishga undaydi.

**Kalit so'zlar:** Umid nihollari, Barkamol avlod, Universiada, suzish, kurash.

Har qanday mamlakatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyoti birinchi navbatda xalqning, yoshlarning jismoniy va ma'naviy kamoloti bilan o'chanadi. Ayni paytda xalqning jismoniy, intelektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, bu borada tegishli zahiralarni shakllantirish, XXI asrda taraqqiyot va yuksalish kafolatiga aylanib bormoqda. Bu haqiqatni chuqur va har tomonlama idrok etib, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda sog'lom va barkamol avlod tarbiyasini davlat siyosatining eng muhim va ustivor yo'nalishlaridan biriga aylantirish, yurtimizda ham o'ziga xos milliy tizim yaratish chora-tadbirlari amalgalashishga oshirib kelinmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy sport inshoatlari, o'yingoh majmualarning barpo etilishi o'quvchi yoshlarni ommaviy sport musobaqalari bilan to'liq qamrab oladigan "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" o'yinlaridan iborat uch bosqichli milliy tizimning shakllanishiga asos bo'ladi.

Natijada sport, jismoniy tarbiya yoshlar dunyoqarashiga ijobiy ta'sir etib, jismoniy intelektual resurslar rivojining yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlamoqda. Qolaversa, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sahalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi. Bunda ikkinchi tashabbus-yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Mana shunday yaratib berilgan imkoniyatlardan foydalanib, o'quvchi yoshlarimizni qiziqishiga qarab sportning turli xil yo'nalishlariga jalb qilib, ulardan yangi championlarni tayyorlashimiz zarur. Buning uchun darsdan tashqari sport to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish va to'garaklarda o'quvchilarni turli sport yo'nalishlari bo'yicha puxta tayyorlab borish kerak. Sportning suzish turididan to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish.

Murabbiy bolalarga suzishni o'rgatish jarayonida odam va suv muhitining o'zaro ta'siriga bog'liq qonun-qoidalardan imkon qadar maqsadli ravishda foydalangan holdagina to'g'ri suzish ko'nikmasini shakllantirishi mumkin. Suzish 4 bo'limdan iborat bo'lib, ular suzish sporti, suzish o'yinlari, amaliy va figurali suzish nomlari bilan ataladi. Suzish sporti maxsus qoidalarga ko'ra belgilanadigan turlar va masofalar bo'yicha musobaqalarni o'z ichiga oladi. Bellashuvlar standart xajmdagi basseynlarda 50-1500 metr masofaga, shuningdek, ochiq suv havzalarida turli masofalarga suzish musobaqalari shaklida o'tkaziladi.

Suv o'yinlari turli harakatlari va suvdagi o'yinlarni o'z ichiga oladi. Bunday suzish asosan yosh suzuvchilarni o'rgatish va tayyorgarlik mashg'ulotlari paytida qo'llaniladi. O'yinlar kuchli his-tuyg'ularni uyg'otadi, bolalarning faolligini oshiradi, tashabbus ko'rsatishga undaydi. Suzish yurak-qon tomirlari va nafas olish tizimlari faoliyatining yaxshilanishiga ko'maklashadi.

Vatanparvarlik, jasurlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy qadriyatimiz bo'lgan kurash-dunyoda sport turi sifatida tan olindi, Xalqaro "Kurash" assotsatsiyasi tashkil topdi. Kurash to'garagining asosiy ish shakli musobaqalarda qatnashish, guruhlardagi o'quv mashq mashg'ulotlari hisoblanadi. Kurash-o'quvchilarda kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. "Sportchi" so'zi talaffuz etilganda ko'z o'ngimizda, nafaqat kuchli, chidamli va chaqqon hamda qaddi qomati kelishgan yigit yoki qiz gavdalananibgina qolmay, irodali, to'g'ri hayotga doim yaxshi umid bilan qaraydigan, optimistik kayfiyatdagi, har qanday qiyinchiliklarni oson yenguvchi, kamtarin insonni tushunamiz. Shunday ekan sport to'garaklarini muntazam tashkillashtirib, sportchi yoshlarni ko'paytirishimiz kerak.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. A.D.Novikov, L.P. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" Toshkent 1975
2. A.Abdullayev "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" Farg'on 2000



## SOME EFFECTIVE ACTIVITIES BASED ON IMPROVING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE

Musayeva Makhsuda Akromkhonovna  
Teacher, 162- school, Chilanzar district, Tashkent

**Abstract:** Language is the chief means by which the human personality expresses itself and fulfills its basic need for social interaction with other persons.

As well as, language learning process is an amazing fact and language acquisition is one of the most impressive and fascinating aspects of human development. The article deals with the issues based on analyzing effective activities based on improving students' communicative competence.

**Key words:** language acquisition, learners, activity, communicative competence.

Foreign language acquisition theories emphasize the role of the environment, especially opportunities to interact with speakers who adapt their language and interaction patterns to meet learners' needs. The ever-growing need for good communication skill and speaking skill in English has created a great demand in the methods of teaching English.

Learning is enhanced when learners are involved in the decision making process and the content of the course is directly related to their immediate needs. For these reasons, we found that it is prudent to not only diagnose the learners' linguistic problems, but also the communicative contexts in which they use English outside the classroom.

Sample activities are given below:

### 1. Spot the difference: Information-gap activity

Speech and conversational activities are learner-centered and they demand from the speakers the need to focus on the social pressures of face-to-face interaction. A conversation is truly communicative event where dynamic exchanges of information take place.

An important aspect of communication in CLT is the notion of information gap. This refers to the fact that in real communication, people normally communicate in order to get information they do not possess. This is known as information gap. In this activity the students should use their linguistic and communicative resources in order to obtain information. In doing so, they will draw available vocabulary, grammar, and communication strategies to complete the given task.

This activity is very amusing for the learners and all participated very enthusiastically. Since this activity does not elicit much speech from the students, they are able to show their full participation actively. It has made students to ask questions and give answers, agree and disagree with the answers. Here the conversations of the students are very little but this can be considered as a starter task for conversation. But we were able to succeed in making our students to do everything in collaboration with each other.

### 2. Group Discussion:

Usually discussion skills are not much encouraged in ESL classrooms, as a result of negative experiences. But guided discussions are always preferable, as they provide a frame work within which learners are constrained to operate.

The success of the discussions depends on the willingness of all the participants to make substantial contributions to the process. Their active contribution depends on the knowledge of the topic under discussion. Next step is the formation of partner groups or observer-evaluators. These formations ensure that students have reasonably frequent opportunities not just to participate in discussions, but also to observe, describe and evaluate the process as a whole.

This activity is substantially learner-centered. Examples:

1. Women Empowerment
2. Education in India
3. International terrorism
4. Balance between professionalism and family
5. Is globalization really necessary? 6. Go Green

In group discussion activity, the students are made to speak a dialogue, by looking at the person they are addressing, and speak their lines meaningfully. In other words, they should speak, not read the dialogues. It is important to make sure that all students participate in discussion. The teacher can act only as a monitor to monitor over the language use. This could help them share their ideas



and thoughts in a comfortable atmosphere.

**3. Role-play:**

The usage of role-play in ESL classrooms is implemented when the students are asked to say the lines of a dialogue. The use of role play has got a tremendous number of possibilities for communication practice.

**1. Plays:**

The students are asked to choose their favourite plays they have already read or composed, or from the actual literature of the target language. They are also allowed freely to role play only a portion or a particular scene from a play. They could write out their own scripts also and perform before the audience.

**2. Simulations and Role play:**

In simulations the individual participants speak and react as themselves, but the group role, situation and task is an imaginary one. Sample exercise: The students are informed that they are the committee members of a newly organized old age home. To set up the home properly with all kinds of amenities they would need more money, so they have to raise the fund. For raising sufficient money, ways and means of collecting fund are elicited from the students and the teachers also provide their suggestions.

**References:**

1. Roginko, E.V. Interactive methods of teaching student's foreign language professional communication based on the text types for specific purposes. PhD thesis (Education), Moscow. 2010
2. Shahin Sultana. Design of materials and tasks for making ESPclasses interactive. English for Specific Purposes World, ISSN 1682-3257, <http://www.esp-world.info>, Issue 37, vol. 13



## TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI

Orazshaeva Ziywar Satullaevna

Qoraqalpog'iston Republikasi  
Qanliko'l tumani 13-sonli maktabgacha  
ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

**Annotatsiya:** Maqolada tarbiyachi kasbiy mahorati, pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatining taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqorolik va kasbiy mavqeini ifodalashi haqida aytilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyachi, kasbiy mahorat, pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, pedagogik texnika.

Pedagogik mahoratga erishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatining taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqorolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi. Pedagogik mahorat kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. So'nggi yillardagi ilmiy yondashuvlar bu holatga nisbatan quydagicha xulosa qilishga imkon berdi: pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat kategoriysi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishi individualligini xarakterlaydi.

Pedagogik mahorat - “Tarbiya va o'qitishda yuqori darajaga erishish va uni doimo takomillashtirib borish imkonini ta'minlovchi san'at bo'lib, ta'lim oluvchiga mehr qo'ygan va o'z kasbini sevgan, har bir pedagogning qiladigan ishi. O'z ishining mohir ustasi bo'lgan pedagog – bu yuksak daraja madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san'atning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyotini mukammal egallagan mutaxasisdir”.

“Pedagogik mahorat”ning maqsadi - pedagoglarga kasbiy ijod, mahorat malakalarini shakllantirish, pedagogik texnikani egallash to'g'risida tushuncha berishdan iborat.

Pedagogik mahorat- bu -tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, hayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyiligi, ijodkorligi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishda, psixologik va metodik tayyorgarlikda, yoshlarni o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topib amaliy faoliyatda qo'llashida namoyon bo'ladi.

Pedagoglik sharaflı, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'ziga etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalalar bayon etiladi, yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktabgacha ta'lim hayoti kichik pedagogik jarayon bo'lib, juda xilmoxildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa pedagogdan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

### **Hozirgi kun tarbiyachisi:**

-Pedagogik faoliyatga ko'p qirrali, ijodkor, ishbilarmon, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan xabardor shaxs;

- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;

- Ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan ;

- Pedagoglik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, har bir bola ulg'ayib, yaxshi inson bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;

- Erkin va ijodiy fikrli oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmosg'i darkor.

Davlatimiz xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan pedagogga bog'liq. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, pedagoglarning xilma-xil faoliyatini uyuştirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrli, ongli barkamol inson qilib o'stirish pedagoglar zimmasiga yuklatilgan.

**Tarbiyachi kasbiy mahorat bu** –ma'lum shaxsiy (bolalarni sevishi, mehribonligi, hayrixohligi va h.k) va kasbiy (bilimdonligi, javobgarlikni his qilishi, ijodkorligi erudiciyasi va h.k.) fazilatlarining



yig'indisi hisoblanib, u pedagogik-psixologik, usulubiy tayyorgarligida, bolalarni tarbiyalashning optimal yo'llarini izlab topishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachining kasbiy mahorat, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy sifatlarni ham takomillashtirishni ham taqozo qiladi.

Pedagogik faoliyatga ko'p qirrali, ijodkor, ishbilarmon, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan xabardor shaxs milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni bo'lishi va ularni yoshlar ongiga etkazib tarbiyalanuvchilarni ota-bobolarimiz yaratgan boy merosga hurmatni tarbiyalay olishi kerak. Mohir avvalo mafkuraviy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim Buning uchun avvalo murabbiyning o'zi milliy qadriyatlarning mohiyat mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmat e'tiqodi bo'la olishi darkor.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarbiyachining pedagogik mahorati bu -tarbiyachining shaxsiy bolajonligi, insonparvarligi, mehribonligi va kasbiy bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyiligi, ijodkorligi kabi fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z kasbi bo'yicha chuqur va atroficha bilishda, psixologik va metodik tayyorgarlikda, yoshlarni o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topib amaliy faoliyatda qo'llashida namoyon bo'ladi.

### **Adabiyotlar**

1. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: ОПИ, 2003.
2. Sultanova G. A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019



## BOSHLANG‘ICH TA’LIM DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISH USULLARI.

Risboyeva Umida Zulpikorovna

Ohangaron tumani 35-umumiy o‘rtta ta’lim  
maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** O‘qish va ona tili darslarida og‘zaki nutqni o‘stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Darslarda lug‘at ustida ishlashda o‘quvchilar matn ichidagi ma’nosini tushunmaydigan so‘z va gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** nutq o‘stirish, til vositalari, lug‘at.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun barcha o‘quv predmetlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan uzviy ravishda bog‘lanadi. O‘qish va ona tili darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar, ular kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari haqida to‘g‘ri bayon qilishni o‘rganadilar. Darslar bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatadi.

O‘qish, odobnama, ona tili darslarida tilni maxsus o‘rganish bilan bolalar alohida tovush, bo‘g‘in, so‘z va gaplarni eshitishga va aytishga o‘rganadilar. Ular maqollar, topishmoqlar, ertaklar, hikoya va masallar, she‘r, ruboiy, hikmatli so‘zlar orqali juda ko‘p yangi atamalarni bilib oladilar. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til meyorlariga rivoja qilgan holda ifodali, ta’sirli so‘zlashi, shuningdek, har doim o‘quvchi bilan muomala madaniyatiga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu bilan u o‘quvchilarni ifodali so‘zlashga, xatosiz, chiroqli so‘zlashga o‘rgatadi, tilga sezgirlikni uyg‘otadi.

Maktab o‘quvchilarining nutqini o‘stirishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. O‘qish darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda kichik parchalarni o‘qish, ifodali o‘qish, maznunini o‘zlashtirish, hikoya qildirish va yozma ish turlari: diktant, bayon va inshodan foydalilaniladi.

Maktablarda o‘quvchilarning savodxonligini oshirish uchun interfaol metodlar,didaktik o‘yinlar,mashq topshiriqlar, rebus va krassvordlar orqali o‘quvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantiradi, mantiqiy fikrlash va hozirjavoblik qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘qish o‘qitish metodikasini o‘rganish jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

- o‘quv mashg‘ulotlarida til va nutq hodisalarini o‘zaro farqlash, qiyoslash, umumlashtirish asosida olib borib, o‘quvchining mustaqil va ijodiy fikrashi uchun keng imkoniyat yaratib berish;

- o‘quvchi faoliyatini so‘zga ehtiyoj hosil qiladigan o‘quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so‘z boyligini oshirishni, tafakkur doirasini kengaytirish, nutqiy salohiyatni shakllantirish;

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rivoja qilinadi:

1. **O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin.** Hikoya yoki insho o‘quvchilar uchun yaxshi ma’lum bo‘lgan dalillar, ularning kuzatishlari, kitoblardan, radioeshittirish va teleko‘rsatuvdan olgan ma’lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo‘ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko‘rmagan voqeahodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so‘zlashga yo‘l qo‘ylisa, nutq mazmunsiz chiqadi.

2. **Nutqda mantiqiylik bo‘lsin.** O‘quvchilar nutqi mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o‘rinlar tushirib qoldirilmasligi, mavzuga aloqador bo‘lmagan ortiqchalikka yo‘l qo‘ylmasligi talab etiladi.

3. **Nutq aniq bo‘lsin.** O‘quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so‘z, so‘z birikmasi, gaplar) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashni o‘rganadi.

4. Nutq til vositalariga boy bo‘lish kerak. Mazmunni aniq ifodalash uchun o‘quvchining nutqi til vositalariga boy bo‘lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab tuzish lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ro‘ziboeva O‘. va boshq. Kichik yoshdagি bolalar nutqini o‘stirish. –T.:«O‘zbekiston», 2001.

2. O‘qish .O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. 2016 yil.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI INTERFAOL  
USULLAR YORDAMIDA TASHKIL QILISH

Salamova Muqaddas Abdusamadovna

Namangan viloyati Namangan shahri  
51-umumi o'rta ta'lif matabining  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda interfaol usulda matematika darslarini o'quvchilarga yetqazish hamda matematik masalalarni innovatsioon usulda o'qitish haqida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** Matnli masalar, matematik tushunchalar, arifmetik amallar, sodda masalalar, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati.

Matnli masalalar yechish bolalarda avvalo, mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish ularning programmada belgilab berilgan nazariy bilimlarini o'zlashtirish bilan birga o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan: Agar biz o'quvchilarda qo'shish haqida to'g'ri tushuncha shakillantirishni istasak, buning uchun bolalar yig'indisini topishga doir etarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to'plamlarni birlashtirish amalini bajarib echishlari zarur. Masalan: quyidagi masala berilgan. Ahmadda 6 ta rangli va uchta oddiy qalam bor. Ahmadda hammasi bo'lib nechta qalam bor?

Buni yechish uchun oldin 6 ta cho'p oladilar va buning yoniga yana 3 ta cho'pni surib qo'yadilar, va hammasi bo'lib nechta cho'p bo'lganini sanaydilar. So'ngra masalani yechish uchun 6 ga 3 ni qo'shish kerkligi va hosil bo'lgan 9 son bu ikki sonning yig'indini bo'lishni tushuntiradi.

Shunga o'xhash masalalarni ko'plab yechib bolalar qo'shish amali haqidagi tushunchalarni asta sekin egallab boradilar va uni umumlashtrish asosida qo'shish uchun ularni birga sanash kerakligini tushunadilar. Masalan: amalning noma'lum kamponentini topishga doir masalani yechayotib o'quvchilar arifmetik amallarning kamponentlari va natijalar orasidagi bog'lanishni ajratish va uni masalalar echishga qo'llashga harakat qiladilar.

Masalalarda aniq material bo'lib ular yordamida o'quvchilarda yangi bilimlar vujudga keladi hamda uni echish jarayonida fikrlash amallarini bajarishga o'rganadilar. Bunga 1-sinf matematika kursidagi sodda masalalardan keltiramiz 1.Bir likopchada 8 ta, ikkinchi likopchada birinchidagidan 2 ta ortiq anor bor. Ikkinchi likopchada nechta anor bor?

1- likopchada 8 ta anor, 2-chisida 2 ta ortiq.

Yechish:  $8+2=10$  ta.

Javob: Ikkinchi likopchada 10 ta anor bor.

2.Bir idishda 10 l, ikkinchisida 3 l kam paxta yog'i bor. Ikkinchi idishda necha litr paxta yog'i bor?

1-idishda— 10 l

2-idishda - ? -3 l kam.

Yechish:  $10-3=7$  l

Javob; Ikkinchi idishda 7 litr paxta yog'i bor.

Mavjud bilimlar va fikrlash qobiliyatlar tadbiq qilinishi jarayonida mustahkamlanib boradi. Masalalarni shakllantirishda aniq material bo'lgan holda nazariyani amaliyot bilan o'qitishni turmush bilan bog'lab olib borish imkonini beradi. O'quvchi masalalarni yechayotganda ko'p matematik tushunchalar aniq hayotda odamlarning tajribasida o'z ildizi ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Interfaol ta'lif o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi .

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lif o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media – ta'lif metodlaridan iborat.

Boshlang'ich ta'lilda o'quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar



keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqa lashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqidagi yuritamiz:

Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidiagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirdorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi.

Mashg'ulot oxirida bolalarga topishmoq, hikoya va masalani qaytadan tuzish uchun nima qilish kerakligini o'ylash taklif etiladi. O'rgatishning bu bosqichida birinchi mashg'ulotda bolalar qo'shish hamda ayirishga oid masalalarni echadilar, qo'shish va ayirishga oid masalalar ketma-ket tuziladi. Javobni sonlar o'rtasidagi bog'lanishdan va munosabatlarni tushunchaga asoslanib topadilar.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan matematika darslarida turli xil masalarga keng joy ajratilgan. Sababi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyati uning tushunchalarni tezda anglab olish ko'nikmasini sahkllantirishda masalalarning o'rni beqiyos sanaladi. O'qituvchi esa dars jarayonida o'tiladigan masalarni o'quvchiga to'g'ri va aniq yetkazib berishda yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lmos'h'i hamda darslarni qiziqarli o'yinli texnologiyalar orqali tashkil etib o'quvchilarini darsga qiziqtira olishi muhim omil sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
2. Tolipov O'.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Fan". 2005.



## ONA TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Tursunova Nodira Bahodirjon qizi**

Andijon viloyati Andijon tumani  
56 IDUM Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak ekanligi, dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish shartlari hamda o'qitish texnologiyalaridan ayrim namunalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** I.A. Karimov, musobaqa darslari, pedagogik texnologiyalar, babs-munozara darslari.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida jamiyatimizning yangilanishi, taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz samarasi - zamon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog'liqligini qayd etdi. Darhaqiqat, mamlakatning yuksalishi hamda taraqqiy etishi uchun yoshlari yuksak salohiyatlari, puxta bilimli bo'lislari kerak.

Bugungi kunda ta'limdan asosiy ko'zlangan maqsad faqatgina o'quvchiga bilim berishgina emas balki bilim berishning yangicha usullaridan foydalanish, o'quvchini darsga qiziqtira olish va eng muhim dars jarayonida o'quvchini foalligini oshirishdir. Ta'lim tizimida yangidan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalaniib kelinmoqdaki, bular albatta, o'zing samarsini bermoqda deya olamiz. Zamon ruhiga hamnafas metodist o'qituvchilar tomonidan dars samaradorligini oshirishning yangi-yangi vositalarini o'ylab topilmoqda hamda zamonaviy o'quv-texnika vositalariga tayanib dars jarayoniga tatbiq etish usullarini ishlab chiqilmoqda.

Zamonaviy dars o'tish texnologiyalarining eng samaralilari quyidagilardir:

Musobaqa darslari Ona tili ta'limida musobaqa darslarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara -muloqot jarayonida til imkoniyatlardan foydalana olish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir. Musobaqa darslari o'quvchilarда faoliy, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy fikr yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalami hosil qilishga yordam beradi. Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarining faol ishtirotini ta'minlovchi vositadir. Musobaqa darslarini quyidagi mavzular asosida tashkil etish mumkin: "Nutq tovushlarining siri", "So'z harfidan so'z yasang", "Tinish belgilari musobaqasi", "So'zshunoslar anjumani", "Zakovat" darslari. va h.k. Ushbu dars o'tish texnologiyasi juda samarali bo'lib, bir vaqtning o'zida o'quvchilarda ham nutq darjasini oshiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi va baxs munozaraga kirisha olish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Babs-munozara darslari musobaqa darslarida yechib ulgurilmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq hukm va muxtasar xulosalar chiqarish bilan farqlanadi. Babs-munozara o'quvchilardan hushyorlikni talab etadi. Mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yoki noto'g'riliqi haqida o'ylashga, o'z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o'rgatadi.

O'zaro tortishuv va babs oqibatida eng to'g'ri va ma'qul yechimga kelinadi. o'quvchi babs — munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, o'z "men"ini anglab yetadi, o'z dunyoqarashi, ilmiy-ijodiy tafakkuri ko'lami, haq yoki nohaq ekanligi to'g'risida o'zi mustaqil xulosa chiqaradi. o'z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalami ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlardan unumli foydalanishga o'rganadi. Ushbu o'qitish texnologiyasi ham eng samara beradigan texnologiyalardan biri sanaladi.

Yuqorida keltirib o'tgan o'qitish texnologiyalari bugungi kunda pedagoglar tomonidan keng qo'llanib kelinayotgan texnologiyalar hisoblanadi. Ushbu dars o'tish texnologiyalaridan foydalanish natijasida, dars o'quvchi uchun zerikarli bo'lmaydi, dars jarayonida faqatgina o'qituvchi darsni boshqarmaydi. O'qituvchi faqatgina nazoratchi vazifasini o'taydi. Bu esa o'qish samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Albatta, bugungi jadallahib borayotgan bir davrda biz pedagoglar ham zamon ruhiga hamnafas bo'lib, bundan-da yangidan yangi dars usullarini ishlab chiqishimiz lozim. Zamonaviy texnologik dars o'tish bugungi kunning eng muhim shartlaridan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. To'xliyev, Shamsiddinova, T. Ziyodova "o'zbek tilini oqitish metodikasi" O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi jamg'armasi nashriyoti Toshkent-2006.



## BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.

**Yakubova Gulzira Abdujabborovna**

Bo'ka tumani 39-umumiy o'rta ta'lif  
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqlada boshlang'ich sinf o'qish darslarida qo'llaniladigan zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiya, venn diogrammasi, kompyuter darslari.

Ta'lif tizimini rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson sifatida tarbiyalash uchun imkon beruvchi mukammal ta'lif tizimini yaratish, uning samaradorligini oshirish kabi masalalar «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning bosh maqsadi va ta'lif sohasidagi islohotlar asosini tashkil etadi.

Boshlang'ich ta'lif tizimida innovatsion texnologiyalar va yo'nalishlardan foydalanish bugungi kunda dolzarb hisoblanib, bu borada olimlarimizning bir qator tadqiqotlari mayjud. Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lif jarayoni axborot bilan rivojlanib boradi. Natijada o'quv faoliyat jarayoni ham yangilikka muhtoj bo'lib qoldi. Bu holatdan chiqish uchun darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati materialini bayon qilish, o'quvchilarining fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarining mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. bugungi kun talabiga javob bera oladigan zamonaviy darslarning asosiy shartlari uning qiziqarli o'tilishi, o'quvchilarni zerikmasligi va qiziqishini orttirishdan iboratdir. Bilim oluvchini mustaqil o'qib-o'rganishiga undaydigan bunday darslarda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Interfaol metodlar orqali o'quvchining faolligi ortadi, ijodiy imkoniyatlari ro'yobga chiqadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, psixologik, estetik, badiiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda darslarda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

**-“balig skeleti “ metodi:** bu usul orqali o'quvchilar mustaqil , keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rganadilar. Bu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rta tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar.

**-“blits – o'yin” texnologiyasi:** ushbu texnologiya o'quvchilarga harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etish, mantiqiy fikrlash, o'rganayotgan pretemti asosida ko'p, xilma-xil fikrlar va ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishga o'rgatishga qaratilgan. Bu metod o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, shu bilan bir qatorda, o'zgalar fikrini ham hurmat qilishga o'rgatadi.

O'quvchilar tomonidan yakka tartibda bajarilishi kuzatiladi. O'quvchilar tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan vazifani mustaqil bajaradilar, so'ngra guruhlarda tahlil qiladilar. O'quvchilar tarqatma materialdagi tartibsiz berilgan javoblar to'g'risiga mos savollar raqamini belgilab chiqadilar. Bu vazifani bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. So'ngra o'quvchi javobi bilan to'g'ri javob o'qituvchi yoki guruhlar tomonidan taqqoslanib, tahlil qilinadi.

**“Rezyume” texnologiyasi:** bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Maqsadi esa, o'quvchilarni erkin, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, mavzudan kelib chiqadigan muammoni yechishga o'rgatish.

Xulosa qilib aytganda, dars davomida o'quvchining ta'lif faoliyati innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirilsa, axborotni qabul qilish oson kechadi va ta'lif samaradorligi ortadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ro'ziyeva D, Usmonboyeva M, Xoliqova Z. Interfaol metodlar:mohiyati va mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari. T-2013

2. Ishmuhamedov R, qodirov A, Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T-2008



## К МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Низамова Нодирахон Бурхондиновна  
учительница начальных классов общеобразовательной  
школы №3 Туракурганского района.

**Аннотация :** Статья посвящена проблеме создания и широкого применения продуктивных инновационных технологий на уроках математики, которые позволяют быстрее, экономичнее и качественнее достигнуть цели математического образования.

**Ключевые слова :** развивающее обучение, произвольное внимание, рефлексия, начальная ступень ,самоконтроль.

Значение и функции начальной школы в системе непрерывного образования определяются не только преемственностью её с другими звенями образования, но, и, в первую очередь, непреходящей неповторимой ценностью этой ступени в становлении и развитии личности ребёнка.

В связи с этим основной функцией начальной ступени является формирование интеллектуальной, эмоциональной, деловой, коммуникативной готовности учащихся к активно - деятельности взаимодействию с окружающим миром (с природой, другими людьми, самим собой и др.). В настоящее время, в период стремительного научно- технического прогресса, возросла роль математики, а поэтому приобрело большую общественную значимость математическое образование.

Для достижения указанных результатов в психическом и личностном развитии младшего школьника, прежде всего, необходимо кардинально изменить приоритеты целей начального образования: на передний план поставить цели, которые заключаются не в вооружении учащегося определённой суммой предметных знаний, знаний, умений, как это было до сих пор, а в воспитании его личности на основе формирования учебной деятельности.

В научную основу обновлений содержания образования в начальной ступени положена современная идея развивающего обучения, которая рассматривает ученика как носителя определённых умений и навыков, субъекта учебной деятельности, автора собственного видения мира, способного вступать в диалог с миром, и просто как ребёнка, строящего своё развитие в соответствии со своими возможностями.

Начальная ступень - период наиболее благоприятный для интенсивного формирования учебной деятельности, который является фундаментом развития интеллекта ученика. Содержание учебной деятельности строится в заданной форме, усвоение задачной формы вырабатывает у ученика дисциплину ума, движение мысли в заданном направлении, в системе. При этом формируются такие психические свойства личности, как произвольное внимание, рефлексия, самоконтроль, план «внутреннего действия», учащийся овладевает общими способами самостоятельного решения различных учебных задач, самоконтроля и самооценки собственных действий, сравнения своих результатов с эталоном.

Формирование учебной деятельности тесно связано с повышением теоретического уровня содержания образования. Это требует увеличения в содержании доли научных понятий. Реализация его обеспечит отход от созерцательного метода познания, включение ребёнка в самостоятельный акт открытия связей, зависимостей, закономерностей объектов и явлений окружающего мира, что способствует развитию интереса, творческих способностей учащегося. Именно учебная деятельность позволит ученику овладеть умениями работы такими методами.

В педагогической психологии установлено, что логическое мышление ребёнка младшего школьного возраста развивается эффективно, если на высоком уровне развития находятся наглядно- образное и наглядно- действенное формы мышления. Следует подчеркнуть, что при формировании системы научных понятий охватываются все виды мышления.

В основу определения и построения содержания образования в начальной ступени положены и такие принципы, как обеспечение интегративного характера обучения, как воспитание нравственности, эстетического вкуса, экологической культуры, здорового образа жизни школьников на основе лучших традиций, обычаяев, духовно- культурного наследия нашего народа.



Учёт познавательных способностей ученика начальной ступени, определяющихся его возрастными особенностями, и ориентированности целей обучения на воспитание личности ученика, указывает на целесообразность построения содержания учебных предметов не как основ наук, а здесь на передний план выступает задача формирования у учащегося базисных аспектов культуры.

Математика в качестве главной цели ставит формирование и развитие познавательных, творческих способностей, интеллекта учащихся, обеспечение их математической грамотности, усвоение ими элементов математического языка. В целом, усвоение младшими школьниками элементарных математических понятий, представлений, знаний и умений необходимо не только для применения их в трудовой и учебной деятельности, но и для познавательной, коммуникативной и другой деятельности.

В связи с переходом начальных классов на новые программы по математике бала разработана и новая методическая система, которая предусматривает рациональные пути реализации новой программы.

При обучении приёмам вычислений одновременно рассматриваются сложение и вычитание, а также умножение и деление как взаимообратные действия. Поэтому предусматривается одновременное обучение выполнению действия и его проверке с помощью использования обратного ему действия.

**Использованная литература:**

1. Курманалина Ш. Методика преподавания математики в начальных классах. Астана, 2011.
2. Истомина Н.Б. Методика обучения математике в начальных классах. Москва: «Академа», 2001.
3. Газета «Учитель Узбекистана».



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING VAZIFALARI VA USULLARI

**Abdullayeva Gulsara Abdikarimovna**

Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishning vazifalari va usullari xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** 5 tashabbus, matematik rebus, qaysi biri ortiqcha, xotira mashqi...

Respublikamiz ta'lif tizimi, jumladan umumiy o'rta ta'lif mazmuni "Ta'lif to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida bosqichma-bosqich yangilab borilmoqda. Shu jumladan maktablarda mehnat fani texnologiya faniga o'zgartirilib, yoshlarni texnologiya bilan ishlashga, texnologiyalarning inson faoliyatida o'rni haqida mavzular mujassamlashtirildi.



Respublikamizda ushbu fan va uning taraqqiyotiga ko'pgina olimlar A.Varabyev, N.Shodiyev, E.Choriyev, N.Nishonaliyev, O.M.Ma'zumov, R.Mavlonova, O.Magdiyev, K.Davlatov,U.Tolipovlarning darslik va metodik qo'llanmalari chop etilgan. Bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 5tashabbus tadbirlari doirasida ham texnologiya fanining yuksalishi borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

**Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda integratsion yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.** Bunda darslarni fanlararo bog'liqlik asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. O'quv jarayonini bunday tashkil etishda o'quvchilarni fan asoslarining sistemali bilimlar bilan qurollantirish bugungi davr talabidir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, texnologiya darslarda matematik atamalardan unumli foydalilanadi. Shu maqsadda quyidagi matematik rebusni bajarish orqali o'quvchilar diqqatini jalb etish mumkin.




Texnologiya darslarida turli hayvonlarning tasviri ham rangli qog'ozlardan hosil qilinadi. Bunda “**Qaysi biri ortiqcha**” usulidan foydalanish yaxshi samara beradi.



“Qaysi biri ortiqcha?” Qaysi uy hayvonlarini ko'ryapsiz? Nomini yozing.

**“Tasvir va tasavvur” usuli.** Bunda o'quvchilarga mavzu nomi aytildi va unga oid rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar ko'rgan tasvirlarini ketma-ketlikda hosil qiladilar.



Kasb-hunar egalari nomini toping.

f	a	s	f	sh	s	a
p	d	e	h	q	o	n
s	d	s	f	d	p	d
a	g	u	l	ch	i	p
f	d	f	sh	p	sh	s
p	a	sh	d	f	a	f



Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi sifatida barcha o'quv predmetlari, jumladan texnologiya fanini o'qitish mazmuni ham mukammallahib bormoqda. Ushbu o'quv fanining maqsadi—o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari va jarayonlari hamda kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, o'quvchilar mehnatni qadrlashni, uning jamiyatdagi o'rnini bilishni, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish orqali kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat.

### **Foydalanimgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Mavlonova R. Mehnat 3- sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: Mehnat 1993.
2. Internet saytlari.



## O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI O'SТИRISH

**Alimjanova Dilbar Ilhomovna**

Toshkent shahar Chilonzor tumani

182-maktab o'zbek tili o'qituvchisi

Tel: +998 93 511 28 96

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lrim o'zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan ta'lrim muassasalari uchun O'zbek tili fanini o'qitilishi maqsadlari yoritilgan. Ya'ni o'quvchilarning o'zbek tilida og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish usullari va tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** og'zaki nutq, yozma nutq, muloqot, ijodiy fikrlash, refleksatsiya, lug'at bilan ishslash, axborot vositalari.

Ta'lrim o'zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan ta'lrim muassasalari uchun O'zbek tili fanini o'qitilishidan ko'zlangan maqsad: o'quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o'zbek tili fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish; o'quvchilarning o'zbek tilida og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish; o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega: birinchidan, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan; ikkinchidan, o'qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan va faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Kelajakda ta'lrim taraqqiyotining haqqoniy dvigatelei sifatida o'qituvchi faoliyatini yangilashga, ta'lrim-tarbiya jarayonini optimallashtirishga, o'quvchilarda hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish uchun turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qilaman.

1. O'quvchilarning fanga qiziqishini orttirish maqsadida turli ijodkor g'oyalar va internet materiallardan foydalanish mukin. Masalan, "Qiziqarli ko'rsatuvalar" mavzusi bo'yicha ijodkorlik bilan "Intervyu", "Uchrashuv" kabi ko'rsatuvalar tashkil qilish mumkin. Bu mashg'ulot bugungi texnika davri yoshlari uchun qiziqarli bo'lishi tabiiy. Internet manbalari orqali olingan turli ko'rsatuvalardan namunalarni videoousul orqali namoyish etish ham maqsadga muvofiq. O'quvchilar bir-birlaridan intervyu olish jarayonida so'z boyligidagi nuqsonlar nomoyon bo'ladi. Shunday hollarda o'qituvchi yordamga keladi va lug'at bilan ishslashadi. Natijada og'zaki nutq malakasi hosil bo'ladi

2. Lug'at bilan ishslash ko'nikmasini rivojlantish. O'qituvchi o'quvchilarning qaysi soxaga qiziqishi kuchli bo'lsa, shu mavzuda yoki "Kelajakdag'i tasavvurlarim", "2030-yilda erishgan yutuqlarim", "Men xohlardimki..." kabi mavzularda matn tayyorlashga topshiriq berishi ham maqsadga yetaklovchi usul hisoblanadi. Chunki inson, avvalo, o'zining xohishlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu topshiriq orqali o'quvchi o'z fikrini bayon etish uchu xoh yozma, xoh og'zaki matn tuzsa ham ancha ter to'kishiga to'g'ri keladi. Sababi: topshiriq asosida o'z "Men"i yotadi. O'qituvchi ko'zlagan maqsadga oson erishadi.

3. Dars davomida turli diktant namunalaridan foydalanish ham o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini oshiruvchi vositadir. Har darsda mavzu doirasida masalan sinflar uchun belgilangan kompetensiyaga muvofiq tarzda, masalan, boshlang'ich sinflarda: 5ta yangi 5ta avval biladigan so'zlardan iborat 10ta so'zli, 5 daqiqalik lug'at diktantini olishi mumkin. Bu mashg'ulot natijasida o'quvchilarning so'z boyligi oshishi hamda yozma savodxonlikning sifatiga erishish mumkin.

4. Bugungi davr bir necha chet tillarini o'rganishni talab qiladi. O'zga tili guruuhlar uchun o'zbek tilini o'rganish bir muncha qiyinchiliklarga ega. Masalan, talaffuzi qiyin bo'lgan O', Q,



G‘, H, Ng kabi tovushlar talaffuzini oson o‘rganish uchun Shu tovushlar ishtirokida “Zinama-zina” usulidan foydalanib:

So‘z → So‘z birikmasi → Gap → Matn tuzdirish mumkin.

Yoki shu talaffuzi qiyin so‘zlar ishtirok etgan milliy ashula va qo‘shiqlar xirgoyisidan foydalanish mumkin. Bunda avval qo‘shiq eshittiriladi va keyin karaoke qilinadi. Qo‘shiq sifatini bo‘zmaslik uchun o‘quvchi ushbu tovushlarni talaffuz qilishga harakat qiladi. “Takrorlash bilimning onasidir” degan maqolga tayanadigan bo‘lsak bu o‘quvchilarda refleks sifatida bilim va ko‘nikmaga aylanadi.

5. Refleksatsiya metodi orqali. Yuqorida aytib o‘tilgandek tabiiy refleksga aylangan bilim hayotiy qo‘lanmaga aylanadi. Rusiyabon o‘quvchilar uchun o‘zbek tilini o‘rgatishdan maqsad ham og‘zaki va yozma savodxonlikka erishishdir. Shunday ekan har bir o‘quvchi qobiliyati va shaxsiy xarakteriga mos topshiriqlar tanlab berilsa, o‘quvchi bilim oladi, o‘qituvchi esa dars o‘tishda talab etilgan maqsadiga erishadi. O‘quvchi uchun lug‘at ustida ishslash, gap tuzish, matn tuzish, og‘zaki ifodali gapira olish refleksga aylanishi zarur. Buning uchun bir xil qolip asosida muntazam ishlab turish talab etiladi. Yuqorida aytib o‘tgandek, har bir darsda lug‘at diktanti, har bir darsda og‘zaki suhbat uyuştirish yoki ayna bir xil topshiriqni har bir darsda boshqa-boshqa o‘quvchilarga bajartirish.(Oldindan tayyorlanishga berib yuboriladi, masalan bir xil mavzuda takror so‘zlardan foydalanmasdan og‘zaki so‘zlash...)

Xulosa shuki, o‘zbek tili darslarida amaliy topshiriqlar, o‘yin texnologiyalaridan foydalanish og‘zaki va yozma nutqni o‘sirishning eng samarali usulidir.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Yuldashev R. O‘zbek tilini o‘rganamiz. Пособие для курсов по изучению узбекского языка. -Т.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1996.
2. N.Omonov. M. Xattabov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-Т..2016
3. X.S. Muxitdinova va boshq. O‘zbek tili 10-sinf darsligi.,-2017



## SAVOD O'RGATISHDA TAYYORGARLIK DAVRI VA IMLO USTIDA ISHLASH METODIKASI

Allaberganova Marifat Kurambayevna

Urganch Davlat Universiteti

70110501- Ta'lim va tarbiyaviy ishlari nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi) magistranti

Telefon: +998 (97) 791 65 10

marifatkuranbayevna6510@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada savod o'rgatishda tayyorgarlik davri va imlo ustida ishlash metodikasi haqida.

**Kalit so'zlar:** Savod o'rgatish, imlo ustida ishlash, savodli yozuv, grafik xatolar, fonetik xatolar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona-tilidan bilim va malakalarni hosil qilish ishlari asosan yozuv darslarida amalga oshiriladi. Yozuv darslarining mazmuni boshlang'ich sinf ona-tili dasturini va maktab oldiga qo'yilgan talablar asosida belgilanadi.

Yozuv darslarini tashkil etishda pedagogika va metodika tavsiyalari hisobga olinadi. Yozuv darsi va unga qo'yilgan talablarni belgilashda metodika fani sohasidagi yangiliklar, boshlang'ich sinflarda ishlayotgan eng tajribali o'qituvchilarning tajriblari asos qilib olinadi. Shunga alohida e'tibor berish kerakki har bir darsda o'quvchilarga bilim berish jarayonida tarbiyaviy tomonlarga ham alohida ahamiyat berib borish, uzaro hurmat, mas'uliyatni his etish, tengdoshlari va oila azolariga hurmat, g'amho'rlik, tabiatga mehr-muhabbat singari xislatlarni singdirib borish kerak.

O'quv tarbiya ishlarida ko'zlangan maqsadga yetishish uchun o'quvchilarda quyidagi qobiliyatlarni shakllantirib borish zarur:

- 1) Gapdag'i so'zlarni o'xshash tomonlariga ko'ra taqqoslab olish.
- 2) So'zlar nimani ifoda etishiga ko'ra turkumlarga ajratish.
- 3) O'qituvchi tavsiya qilgan yoki o'zi tuzgan reja asosida fikrlarni bayon ega olish.
- 4) Gaplarda grammatik tushunchalarini, orfografik qoidalarni ifodalay olish.
- 5) Darslikdagi turli mashqlar va topshiriqlarni birgalikda muhokama qilinganidan keyin uni bajara olsh.

Ona tili darslari savodli yozuv darsi hisoblanadi. Shuning uchun ham yozma ishlarga alohida e'tibor beriladi. Darsning uchdan ikki qismida o'quvchilar grammatik, orfografik va nutqiy yozma ishlarni bajaradilar. Shuning uchun grammatik, orfografik bilimlarni o'zlashtirish uchun qund bilan ishlashga to'g'ri keladi. Kuzatshlardan ma'lumki, darsda o'quvchilarning osoyishta va mustaqil ishlarini ta'minlagan o'qituvchi ularning savodli bo'lishga erisha oladi.

Bunday darslarda ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan foydalanish o'z o'rnida bo'ladi. O'quvchilarning dars jarayonida yo'l qo'ygan xatolarini sekin yotig'i bilan tushuntirish lozim. O'quvchi shundagina yozuvida yo'l qo'ygan xatosini tushunib oladi va tuzatishga harakat qiladi, bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishlari ortib boradi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarini bajargan ishlarini o'z vaqtida baholab borish ham katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf ona-tili darsliklaridagi manbalar oz bo'lsada izlanish metodi bilan ishlashni taqozo etadi O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida mashq shartini o'qib unda talab etgan topshiriqlarni aniqlaydilar savollarga javob qidiradilar undagi fikrlarni umumlashtiradilar, mashqlar bajaradilar. Umumlashtirish va xulosalar assosida qoidalar ishlab chiqadilar.


Umuman ona-tili darslarini to'g'ri va qiziqarli tashkil etilishi o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi.

II. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida xato turlari va ularning kelib chiqish sabablari.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuvlarida turli xatolar uchrab turadi.

Bu uchraydigan xatolarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Grafik xatolar. Grafik xatolarga harf shakllarini o'xshata olmaslik, harflarning o'rnini almashtirib yozish, talaffuzi o'xshash undoshlarni aniqajratmaslik natijasida yozuvda bir harf o'rniga ikkinchisini ishlatish biror harfni tushirib qoldirish kabi xatolar uchraydi. Shularga ko'ra grafik xatolar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:



1. Alisher odobli bola.
2. Kuz fasli boshlandi
3. Qobil ikki tup ko'chat ekdi
4. Olma, o'rmon, to'qmoq.
2. Fonetik xatolar. Bunday xatolar so'zlarni tog'ri talaffuz qila bilmaslik, sheva va dialektlar ta'sirida bo'ladi. Fonetik xatolar asosan quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi.



Xatolar ustida ishlashda orfografik tahlilni ahamiyati katta bir necha gapni orfografik jihatdan to'la tahlil qilish kerak. Bu bilan o'quvchilar so'z ma'nosi va uning imlosini puxta o'zlashtirib oladilar. O'quvchilarning to'g'ri, xatosiz yozishga o'rgatish va yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Eng avvalo o'quvchilarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish. Ya'ni so'z aytilganda tovushlarni aralashtirmay, tovush tushirib yoki orttirib talaffuz etmaslik. Masalan: kitob o'rniغا kitob, ruchka o'rniغا yuchka, mакtab o'rniغا matab deyishga yo'l qo'ymaslik.
2. Har bir darsda ko'pchilik uchun bir xil uchraxydigan tipik xatolar doskada ko'rsatilib, tuzatiladi.
3. Ayrim o'quvchilar uchun tegishli xatolar o'sha o'quvchi bilan birgalikda tuzatiladi.
4. Agar o'quvchilar biror qoidani bilmasligi natijasida xatoga yo'l qo'yigan anashu qoidani takrorlash bilan tushuntirish kerak bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki o'quvchilar yozuvida xatolar bo'lmasligi uchun lug'at ishiga ta'limiylar harakterdagi yozma ishlarga ko'proq o'rinni berish zarur. Imlosi qoidalashtirilmagan va qiyin so'zlar jadvali tuzilib, sinf xonasiga o'quvchilarga ko'rinarli qilib osib qo'yilishi va uni vaqtiga qo'yishni bilanalmashtirib turishsa yaxshi natija beradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Kromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 2003- y.
2. 2-sinfda o'qitish. Tuzuvchi Mavlonova R.A.T., «O'qituvchi», 1977- y.
3. Ma'qulova B. va boshqalar. Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. T., «O'qituvchi», 1996- yil.
4. Mirzaev I. Dars tahlili. T., «O'qituvchi», 1985- yil.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH

Batirova Shaxnoza To'xtaboy qizi

Xorazm viloyati Hazorasp tumani  
17 maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
+99897 513 47 49

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish usullari, texnologiyalar turlari, fanlar kesimida qo'llash haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lif texnologiyalari, anagramma, 6x6x6x6 metodi.

Maktab, ta'lif – tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab – quvvatlashini talab qiladigan umumiylashtirish. Hozirda har bir maktabda ta'lif – tarbiya saramadorligini oshirish jiddiy vazifa bo'lib turibdi. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzlusiz o'rganib borishi orqali o'z kasbiy mahoratini muttazam oshirib borishi talab qilinadi.

O'rta maktablarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

- Matematika o'qitishning umumta'limiylashtirish maqsadi.
- Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.
- Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o'qitishning umumta'limiylashtirish maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) O'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak. O'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so'z o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidanining matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir. O'quvchilami matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bu yerda o'quvchilarga real olamba yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko'zda tutiladi. Bunday bilim berish orqali o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy fikrlashlari yanada rivojlanadi. Hozirda ta'lif metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lif va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. Barcha fan o'qituvchilari shu jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol metodlardan borgan sari keng ko'lamda foydalanmoqdalar. Boshlang'ich sinflarda qo'llanadigan texnologiyalaridan foydalanishning maqsadi: O'quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, bahs - munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakillantirishdan iborat. Hozirda keng qo'llanib kelayotgan interfaol metodlar turlari juda ko'p bo'lib, ularning hammasi ham boshlang'ich ta'limga qo'llash uchun yaroqli emas. Bunga 1-navbatda boshlang'ich sinf o'quvchisining o'qish, yozish tezligining kichikligi va sinfda aksariyat hollarda 30 tadan ortiq o'quvchi o'qishi bo'ladi. Interfaol metodlar nisbatan kichik auditoriyalarga (30 tagacha) va ko'proq uzlusiz ta'lif tizimining o'rta va yuqori bo'ginlariga mo'ljallangan bo'lib, boshlang'ich sinflarda qo'llash tajribalari juda kam. Shuning uchun yangi texnologiyalarning faqat boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llash mumkin bo'lganlari haqida so'z yuritamiz. Interfaol metod sinfda o'tiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda - Adashgan zanjirlar, - Uchta to'g'ri bitta noto'g'ri, -loyihalash, Anagramma, -6 X 6 X 6 X 6 metodi,, -Kichik guruhlarda ishslash, -Burchaklar metodi-, -Kubiklar metodlari asosida bahs, munozara orqali ularni yechimini topishda yaqindan yordam beradi. "Uchta to'g'ri bitta noto'g'ri" texnologiyasini qo'llash bir muammoni hal qilish



yo‘lidan turlicha va iloji boricha ko‘proq taklif, fikr – mulohazalarni yig‘ishdan iborat. Avvaliga har qanday takliflar qabul qilinadi. Keyin esa, ularning ichidan eng ma‘qulini tanlab olinadi. Bu metodni qo‘llashda eng nozik tomoni hamma takliflarni -Eslab qolishdir. Shuning uchun ularni yozib borish kerak bo‘ladi. O‘qituvchi ularni shartli belgilar va qisqartirishlar bilan doska yoki vatman qog‘ozga yozib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. B. 4-19.
2. Azizxo’jaeva.N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.–T.:2003.-174



MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USULLARI

**Bobojonova Zulayxa Yangibayevna**

Gurlan tumani 22-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 967 68 90

zulayxayangibayevna\_22@umail.uz

**Begliyev Sanjar Reymbergenovich**

Xorazm viloyati XTXQTMOMH katta o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 452 09 03

begliyev1984@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy usullari hamda bir qancha ta'limiylar dasturlardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, Rosamund Sutherland, David Tall, Tommy Dreyfus, Gerhard Holland, chiziqli dastur, tarmoqlangan dastur, adaptiv dastur, umumlashtirilgan dastur, dastur-algoritm.

Ta'lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat muktab, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlariga, balki har qaysi oila, hayotiga keng kirib borishi uchun zamin tug'dirishning ahamiyatini chuqur anglab olishimiz lozim.

Axborot – so'zi lotincha «informatio» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «tushuntirish, tanishtirish, bayon etish» - degan ma'nolarni anglatadi. Ko'p hollarda «axborot» so'zi o'rni «berilganlar» degan ancha farq qiluvchi so'zi ham ishlataladi. Axborot – aniq va amalda ishlataladigan xabardir. Berilgan(ma'lumot)lar esa, xabar va kuzatishlarni o'z ichiga oladi. Biror zaruriyat bo'yicha imkoniyat tug'ilganda, masalan, narsa to'g'risidagi bilimini oshirish paytida u axborotga aylanadi.

Axborot texnologiyalari – axborotni yig'ish, saqlash, uzatish, o'zgartirish, qayta ishlash usul va vositalari yig'indisidan iborat. O'qitishning yangi axborot texnologiyasi deganda – faqat o'quv tarbiya jarayonga qo'llanishi mumkin bo'lgan eng yangi axborot texnologiyalarni tushuniladi. Yangi axborot texnologiyalari - turli toifali foydalanuvchilar tomonidan EHM asosida axborot olish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar bilan ta'minlashdan iborat.

Matematika ta'limi jarayonlarini kompyuterlashtirish, eksperimental matematikada maxsus dasturiy paketlardan foydalanish (Rosamund Sutherland), matematikani o'qitishning axborotlashtirilgan muhiti (David Tall), matematika ta'limida kognitiv vositalarning o'rni (Tommy Dreyfus), zamonaviy elektron o'quv adabiyotlariga qo'yilgan talablar va ulardan ta'lif jarayonlarida foydalanish shart-sharoitlari, maqsad va vazifalari (Gerhard Holland) lar tomonidan tadqiq etilgan

O'qitish texnologiyasida quyidagi dasturlar bo'lishi mumkin: chiziqli dastur; tarmoqlangan dastur; adaptiv dastur; umumlashtirilgan dastur; dastur-algoritm; modulli o'qitish dastursi; bilimlarni to'liq o'zlashtirish dastursi.

Chiziqli dastur nazorat topshiriqlari bo'lgan o'quv axborotining ketma-ket o'rin almashinuvchi uncha katta bo'limgan bloklaridan iborat.

Chiziqli dasturda o'quvchi axborotning ushbu qadamni (bloki) ga javob to'g'ri bo'lganda keyingi qadamga (blokka) o'tadi, javob noto'g'ri bo'lganda esa, shu qadamning o'ziga qaytadi, ya'ni boshlang'ich axborotni qaytadan o'rganishi kerak.

Tarmoqlangan dasturda javob noto'g'ri bo'lganda o'quvchiga nazorat topshirig'ini bajarishi, to'g'ri javob berishi va o'quv axborotining navbatdagi qadamiga (blokiga) o'tishiga imkon beruvchi qo'shimcha o'quv axboroti beriladi.

Adaptiv dastur o'quvchiga yangi o'quv materialining murakkablik darajasini o'zi tanlashiga, uni o'zlashtirgan sari o'zgartirishga, ma'lumotnomaga adabiyotlar, lug'atlar, qo'llanmalar va h.k. ga murojaat qilishga imkon beradi.

Umumlashtirilgan dastur chiziqli, tarmoqlangan va adaptiv dasturlarning parchalari (fragmentlari) ni o'z ichiga oladi.



Dastur-algoritm aqliy (nazariy) va amaliy operatsiyalarning ketma-ketlik tartibini aniqlaydi. U, ham mustaqil o'qitish dastursi, .ham boshqa o'qitish dastursining qismi bo'lishi mumkin.

Algoritm deganda ko'rsatilgan maqsadga erishish yoki qo'yilgan masalani echishga qaratilgan amallar ketma-ketligini bajarish borasida ijrochiga tushunarli va aniq ko'rsatmalar berish nazarda tutiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Aripov M.M., Muhammadiyev J.O` Informatika, informatsion texnologiyalar. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: TDYuI, 2004. – 275 b.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy – nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 164 b.
3. Yunusova D. Bo'lajak matematika o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. – 165 b.



BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA INTERFAOL METODLARDAN  
FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Hasanova Malohat

Buxoro viloyati Qorako'l tumani  
23- boshlang'ich ta'lim maktabi  
boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida interfaol metodlardan foydalangan holda dars o'tishning afzalliklari, ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo'llash bo'yicha so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, dars, o'qituvchi, o'quvchi, interfaol metod, texnologiya, bilim, pedagogika, o'quv jarayoni, muloqot, fikrlash, qiziqish.

Boshlang'ich ta'lim barcha ta'limning asosiy poydevori hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi bolaning o'qishga bo'lgan ijobjiy munosabatini, bugungi kunda eng zarur bo'lgan o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayonida keng qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sababi an'anaviy ta'limda o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni egallahsha o'rgatilgan. Boshlang'ich ta'limda zamонавиу texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarni o'zlar qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarни ham o'zlar keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamон boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi hamda o'qituvchi tinmay o'z ustida mustaqil ishlashi fandagi barcha yangiliklardan xabardor bo'lishi ilg'or metodikalarga ega bo'lgan tajribali metodist-o'qituvchilar bilan o'z tajribalari to'g'risida o'rtoqlasha olishi, samarali o'qitish metodikalarini namoyish eta olishi lozim.

Ta'lim samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlarining bajarilishini ta'minlash, ta'limning sifat ko'rsatkichini kafolatlashda zamонавиу pedagogik texnologiya hal qiluvchi omillardan bo'lib bormoqda. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayonida qo'llash jahon amaliyotida keng tarqalmoqda. Zero, o'quv jarayonini demokratlashtirish, kelishuvchanlik asosida tashkil qilishda hamkorlik va ijodkorlik rivoj topmoqda. Bular o'quvchining o'quv mehnatini amalga oshirishida harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi va o'qituvchini doimiy izlanishga, uzlusiz o'z ustida ishlashga undaydi. Bu, o'z navbatida, ta'limda samaradorlikni ta'minlaydi.

Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingen axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, xamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki mazmunni o'zaro faollikda hal eta olish demakdir.

O'qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga, chuqur bilimlarga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya ishlarida zamонавиу pedagogik texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanish hozirgi zamон davr talabi hisoblanadi. Hozirda ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish uchun fanlarni o'qitishning eng samarali zamонавиу pedagogik texnologiyalarini puxta bilish va yangiliklarni muntazam kuzatib borish talab qilinadi.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil o'qish, fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holatda himoya qila bilish, sog'lom raqobat, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilar oldida yuzaga kelgan muammoning yechimini birgalikda izlashni tashkil etish bilan birga ta'lim jarayonini boshqarishda pedagogik mahoratini va qobiliyatini rivojlantirib borishi ham talab etiladi. Sinfdagagi barcha o'quvchilarning o'z qobiliyatları darajasida albatta



o‘zlashtirishlari kafolatlanadi. Bunda o‘quvchining o‘zlashtirganligi olgan bilimlarni hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko‘nikma va malakalari bilan belgilanadi. Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda quyidagi natijalarga erishiladi:

1. O‘quvchining o‘zaro faolligi oshadi, hamkorlikda, ijodkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

2. O‘quv reja, dastur, darslik, standart me’yor, qo‘llanmalar mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi.

3. Ta’lim mazmunini, matnni mustaqil mutolaa qilish, ishlash, o‘zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.

4. O‘quvchi erkin fikr bildirish, o‘z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

5. Eng muhimmi, o‘quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya’ni o‘quvchining ehtiyoj, xohish, istagi qondiriladi. Bu holat o‘quvchini o‘quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga ko‘taradi. O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi. O‘z vaqtida o‘quvchi-o‘qituvchi-o‘quvchilar orasida ta’limiy aloqalar o‘rnataladi.

O‘quv jarayoni o‘quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo‘ladi. O‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o‘quv materiali yaxshi esda qoladi. O‘quvchida o‘zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko‘nikmalari shakllanadi. O‘quv jarayonida-o‘quvchining o‘z-o‘ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O‘quvchi uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo‘ladi. Har bir o‘quvchini o‘zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o‘tilgan darslarda o‘quvchi faqat ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.G’.Yo‘ldosheva, S.A.Usmonov “Pedagogik texnologiya asoslari” T. 2004.
2. R.A.Mavlonova, M.Arabova, G’.Saloxitdinova “Pedagogik texnologiya”. T. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, “Fan” 2008.
3. J.G’.Yo‘ldosheva, F. Yo‘ldosheva “Interfaol ta’lim – sifat kafolati” T. “O‘qituvchi” 2008.



TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA SHAXSGA YO’NALTIRILGAN TA’LIM  
YONDASHUVLARINI QO’LLASH

**Jumatova Mohira Qurbanbayevna**

Gurlan tumani 42-sون AFCHO’IM o’qituvchisi

Telefon: +998 (97) 511 12 90

davletovashoxida\_27@inbox.uz

**Begliyev Sanjar Reymbergenovich**

Xorazm viloyati XTXQTMOMH katta o’qituvchisi

Telefon: +998 (97) 452 09 03

begliyev1984@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o’quvchining shaxs sifatida shakllanishishiga yordam beruvchi shaxsga yo’naltirilgan ta’lim yondashuvlari qo’llashga oid ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Noan’anaviy ta’lim yandashuvlari, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim yandashuvlari, tizimli yandoshuv, faoliyatga yo’naltirilgan yandoshuv.

Pedagogik-psixologik hamda fanlarni o’qitish metodikalariga bag’ishlangan ko’plab adabiyotlarda o’quvchining individual xususiyatlarini ochib berishga uning qobiliyatlarini rivojlanirish qiziqishlarini e’tiborga olgan holda shaxs sifatida shakllanish ishiga yordam beruvchi yakka tartibda olib boriladigan ta’lim shaklini shaxsga yo’naltirilgan ta’lim deb qaraladi.

Bu ta’lim o’z mohiyatiga ko’ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to’laqonli rivojlanishlarini ko’zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, mutaxassislik faoliyati bilan bog’liq o’qish ma qsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Ta’lim tarbiya jarayonida qo’llaniladigan barcha usullar shaxsga qaratilganini e’tirof etgan holda alohida olingan o’quvchiga ta’limiy – tarbiyaviy ta’sir etish usulini ham shaxsga yo’naltirilgan ta’lim usuli deb ataymiz. Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim asosini anglash va bir-birini tushunish tashkil etadi. An’anaviy ta’lim asosini tushuntirish tashkil etib, bu tushunchalar farqi quydagicha sharxlanadi: tushuntirish – bitta sub’ekt, monolog; anglash – ikkita sub’ekt bir-birini tushunishi, hamkorlik, dialogdir.

Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim asosini tushuntirishdan anglashga, monologdan dialogga, ijtimoiy nazoratdan rivojlanishga, boshqarishdan o’z-o’zini boshqarishga o’tish tashkil etadi. Pedagog fanni o’quvchilar bilishiga emas, ularning hamkorlik qilishiga, ijodkorlik xususiyatlarini namoyon qilishiga erishishi kerak. O’quvchini pedagogik qo’llab-quvvatlash o’qituvchining asosiy vazifasi bo’lishi kerak. O’quvchining qo’yilgan masala ustida ijodiy izlanish, masalani tadqiq etishga tajribasi, imkoniyatlari, salohiyati yetarli emas. O’qituvchining maslahati va yordamiga muhtoj.

O’qituvchining qo’llab-quvvatlashi Sh.Amanashvili ta’kidlashicha quydagi tamoyillarga asoslanadi:

- bolani sevish;
- bola yashayotgan muhitni odamiylashtirish;
- o’z bolaligini bolada ko’rish.

Xorijiy psixologik tadqiqotlar pedagogning vazifasi bola shaxsini shakllantirishda, rivojlanirishda deb ta’kidlaydi. K.Rodjers fikriga ko’ra o’qituvchi sinfda o’quvchining individual rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhitni yaratish uchun quydagilarga amal qilishi kerak:

- o’quv jarayoni davomida o’quvchilarga to’la ishonchni namoyon qilishi;
- har bir o’quvchi va sinf oldida turgan maqsad va vazifalarni aniqlashtirish va ifoda qilishda ko’maklashishi;
- o’quvchilarda ichki rag’bat (motiv) mavjudligiga asoslanishi;
- har bir o’quvchi uchun o’qituvchi turli tuman tajribalarga ega, zarur bo’lganda doimo murojaat etish mumkin bo’lgan manba bo’lishi;
- o’qituvchi doimo o’quvchilar guruhi ruhiyatini sezishi va uni qabul qilishi;
- guruhdagi o’zaro muloqotning faol ishtirokchisi bo’lishi;
- o’z xis – tuyg’ularini ochiq ifoda etishi;
- har bir o’quvchi his-tuyg’ulari va kechinmalarini tushunishga erishishi;
- o’z-o’zini va o’z imkoniyatlarini yaxshi bilishi.



Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etuvchi o'qituvchi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- bolaga, madaniyat va ijodga qadr qiymatli munosabatda bo'lishi;
- insoniy pedagogik munosabatni namoyon qilishi;
- bolaning ruhiy va jismonan sog'lig'ini saqlashi;
- o'quv-rivojlantiruvchi va madaniy-axborot ta'lim muhitini yaratishi va muntazam boyitishi;

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: «Nihol» nashrièti, 2013, 2016.–279b.

2. Sergeev I.S. Osnovы pedagogicheskoy deyatelnosti: Uchebnoye posobiye. – SPb.: Piter. Seriya «Uchebnoye posobiye», 2004–316 s. 163 b.



## TALIM JARAYONIDA STEAM YONDASHUVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Mangliyeva Feruza Baxtiyarovna**

Gurlan tumani 22-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 501 73 65

feruzabaxtiyarovna\_22@umail.uz

**Xodjayeva Sevara Shuxratovna**

Xonqa tumani 7-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (90) 920 44 18

sevarashuxratovna\_4418@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada STEAM dasturining mazmun-mohiyati hamda, STEAM yondashuvi asosida maktablarda darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** STEAM, S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san'at, M – matematika, Ijodiy fikrlash, Muhandislik yondashuv, Tanqidiy fikrlash, Dizayn asoslarini.

Bugungi kunda STEAM-ta'lism dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bunad ular fikrlarni to'plashi va fikrlar almashadi.

STEAM yondashuvi tufayli o'quvchilar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rghanishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rghanishadi, o'z navbatida, o'quvchilar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

STEAM(S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san'at, M - matematika) ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

O'z-o'ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda o'quvchilar o'z qo'llari bilan yaratgan ko'priklar va yo'llar, samolyotlar va avtomobilarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o'tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan "mahsulot"ni qayta-qayta sinovdan o'tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o'zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g'alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g'alaba, o'zlarining qobiliyatlariga ko'proq ishonch uyg'otadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish. STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo'rmaslikka o'rghanadilar. Ko'pincha, stol atrofida o'tirmaydi, o'zlarining dizaynlari asosidagi "mahsulot"larni sinovdan o'tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta'minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do'stлari bilan muloqot qilish bilan band bo'lishadi.

Texnik fanlar bo'yicha qiziqishlarni rivojlantirish. STEAM ta'limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo'yicha, qilgan ishni yaxshi ko'rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. STEAM – bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo'lib, bolalarning zerikishlariga to'sqinlik qiladi. Ular vaqt o'tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamaydilar.

STEAM yondashuvi asosida maktablarda darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish orqali o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ijobjiy tashkil etish, o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, kasbga yo'naltirish, o'zlashtirishlariga ijobjiy ta'sir etadi.

Ta'limda bu yangi yondashuv qanday paydo bo'ldi?

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar o'zlarining bitiruvchilarining kareralarini rivojlantirishga e'tibor berishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi, shuning uchun STEM tashkil etildi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik unga san'at qo'shildi va STEAM tashkil etildi. O'qituvchilar, bu fanlarni yoki bu fanlarga oid bilimlarga ega bo'lish, maktab o'quvchilarini kelajakda yuqori malakali mutaxassislar bo'lishiga yordam beradi deb hisoblaydilar. Natijada o'quvchilar yaxshi bilim egallash va bilimlarini qo'llashga harakat qiladilar.



G’oyalar haqiqatga aylanadi. Agar biz an'anaviy ta’limning asosiy maqsadi bu bilimlarni o’rgatish va ishlatish bo’lsa, demak, STEAM yondashuvi olingen bilimlarni haqiqiy hayotga mahorat bilan qo’llashni o’rgatishdir. Bu maktab o’quvchilariga faqatgina ba’zi g’oyalarga ega bo’lishni emas, balki ularni haqiqatda ishlatish va amalga oshirish imkonini beradi. Haqiqatda ishlatilishi mumkin bo’lgan bilimlar haqiqatda qimmatlidir.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi Massachusetts Texnologiyalar Instituti (MIT). Bu mashhur universitetining shiori “Mind and hand” – “Aql va qo’l” dir. Massachusetts Texnologiya instituti STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba’zi o’quv yurtlarida STEAM ta’lim markazlari yaratildi.

STEAM yondashuvi o’rganish va ta’limga bo’lgan munosabatimizni o’zgartiradi

Xulosa qilib aytmoqchimanki, o’rta maktabda STEAM yondashuvi bolalarga tajribalar o’tkazish, dizayn modellarini yaratish, mustaqil musiqa va kino yaratish, o’z g’oyalarini haqiqatga aylantirish va yakuniy mahsulotni yaratishni rag’batlantiradi. Ushbu ta’lim yondashuvi bolalarga nazariy va amaliy ko’nikmalarini samarali tarzda birlashtirishga hamda o’quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga imkon beradi va oliy ta’limda o’qishni yanada osonlashtiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 05.09.2018 yildagi № PF-5538 Farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiyl o’rta va o’rta maxsus, kasbhunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 6 aprel 2018 yil 187-sod Qarori.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINING TURLARI VA  
ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Qurbanova Ra'no Cho'liyevna  
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
29-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998912401189)

**Annotatsiya:** Dars jarayoni o'quv jarayonini tashkil qilishning asosiy qismi hisoblanadi. Darslar esa turli talablar asosida tashkil qilinadi. Har bir darsni tashkil qilish o'qituvchidan kuchli pedagogik mahoratni talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'limiyl talab, tarbiyaviy talab, didaktik talablar, gigiyenik talablar.

Ona tili darslarida o'zbek tiliga muhabbat va so'zga ehtiyyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o'rganish jarayonida leksik-uslubiy ishlarga katta o'rinn beriladi. Darsda she'r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi. Ona tili o'qitish jarayoni o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslari har bir kishi uchun zarur bo'lgan saranjom-sarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini ham tarbiyalaydi.

Darsga qo'yiladigan umumiyl talablar quyidagilar:

**1. Ta'limiyl talab.** Har bir dars o'quvchiga qandaydir bilim berishi lozim. Har bir darsning asosiy maqsadi ham shu.

**2. Tarbiyaviy talab.** Bu har jihatdan komil shaxsni tarbiyalash demakdir.

**3. Didaktik talablar.** Bu o'qituvchiga darsni to'g'ri tashkil qilish: dars maqsadlarini, turini to'g'ri belgilash, darsdagi u yoki bu materialni o'quvchilarga yetkazib berish usullarini to'g'ri tanlash, o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash shakllarini aniqlab olish demakdir.

**4. Psixologik talablar.** Bu talab shuni nazarda tutadiki, o'qituvchi o'zo o'quvchilarining xarakter-xususiyatini qanchalik darajada yaxshi bilishi juda katta ahamiyatga ega. O'z o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgan o'qituvchigina to'laqonli dars uyushtirishi mumkin.

**5. Gigiyenik talablar.** Bu o'quvchilar salomatligi haqidagi qayg'urish demakdir. Sinfda yorug□lik, toza havo har doim yetarli bo'lishi lozim. Boshqa fanlar kabi, ona tili o'qitishning samaraliligi darsning sifatiga bevosita bog'liqdirdi.

Dars turlari uning didaktik maqsadiga ko'ra belgilanadi, chunonchi: yangi materialni o'rganish darsi, bilimni mustahkamlash darsi, umumlashtiruvchi-takrorlash darsi, bilimlarning qanchalik o'zlashtirilganini hisobga olish (tekshiruv)darsi va boshq. Har bir dars turi muayyan qurilishi bilan boshqasidan farqlanadi. Darsning didaktik maqsadi, turi va qurilishi o'rtasida ma'lum bog'lanish mavjud. Muayyan bir darsning didaktik maqsadi o'rganiladigan mavzuga va bu darsning darslar tizimida tutgan o'rniga qarab belgilanadi. Dars qurilishida qat□iy andaza bo'lishi mumkin emas. Biroq darsda uy vazifasini tekshirish, takrorlash, yangi materialni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish bosqichlariga rioya qilish tajribada o'zini oqlayapti. Shunga qaramay, bularga ijodiy yondashish, darsning maqsadi va foydalilanadigan metodik usullariga asoslangan holda, darsni qaysi bosqich (yangi materialni tushuntirish, mustaqil ishni ajartirish yoki uy vazifasini tekshirish) dan boshlashni o'qituvchining o'zi hal qilib, bosqichlar orasidagi ichki bog'lanish, har bir bosqichdagi ishlaming mazmunini aniq belgilab olish katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ona tili darslari qaysi dars turidan foydalanib tashkil etilmasin o'qituvchi bor mahoratini ishga solib o'tsa dars yanada tushunarli va o'quvchilar xotirasiga abadiy muhrlanib qoladigan dars bo'ladi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. K. Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, □Ona tili o'qitish metodikasi”
2. Internet ma'lumotlari.



## AUDITORIYADAN TASHQARI O'TKAZILADIGAN TARBIYAVIY TADBIRLAR ORQALI TALABALARDA YETAKCHILIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IMKONIYATLARI

Raxmatova Dilbar Anvar qizi  
Navoiy viloyati Karmana tumani  
15-umumiy o'rtalim maktabi psixolog  
NDPI 2-kurs magistranti  
Telefon: +9989(91)3343373 RDA1997@list.ru

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada talabalarda yetakchilik qobiliyatini auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar orqali shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar orqali talabalarda yetakchilik xususiyati bilan birgalikda shakllanadigan xususiyatlar yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** yetakchi, to'garaklar, qiziqish, klub, ilmiy jamiyat, tashkilotchilik, tashabbuskorlik.

### KIRISH.

Auditoriyadan tashqari ishlardan tashqari ishlarning xos xususiyatlari bilan o'qish mashg'ulotlaridan farq qiladi. Bu ish ixtiyorli asosda tashkil qilinadi. Talabalar o'z qiziqish va layoqatlariga qarab turli to'garaklarga yoziladilar, darsdan tashqari vaqtarda o'tkazilayotgan ommaviy va yakka tartibdagi ishlarda ham o'z istaklari bilan qatnashadilar.

Auditoriyadan tashqari ishlarning yana bir xususiyati shundaki, bu ishda talabalarning mustaqil ishlari asosiy o'rinni tutadi. To'garaklarda, sport jamoalarida, lagerlarda mustaqil ishlardan imkoniyatlar yaratiladi.

Auditoriyadan tashqari ishlardan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarni mustahkamlaydi va to'ldiradi, talablarni pedagogik ta'sirga to'la jalb etishga, dars uchun ajratilgan vaqt ichida amalga oshirish qiyin bo'lgan ishlardan amalga oshiriladi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlardan mehnat va o'quv mashg'ulotlari bilan o'yinkulgu, xordiq chiqarish tadbirlari o'zaro muvofiqlashtirilishi kerak.

Auditoriyadan tashqari ishlardan ko'zda tutilgan maqsad talabalarda turli sohalardan bo'yicha qiziqishlarni yuzaga keltirish, ularni rivojlantirish, tarbiyalash, yashirish qobiliyatlarini namoyon etish, o'z qiziqishlarni bo'yicha kengroq ma'lumot olish va ishish imkoniyatini berishdir. Talabalarning hayotini chinakamiga madaniy qilish ularni jamoa bo'lib yashashga o'rgantishdan iboratdir.

Auditoriyadan tashqari ishlarni tashkil qilish shakllari quyidagicha:

- Og'zaki ish usullari (siyosiy axborotlar, majlislar, ma'ruzalar, dokladlar, kitobxonliklar, konferensiylar, babs-munozaralar, uchrashuvlar);
- Ko'rgazmali ish usullari (muassasa muzeylari, turli sohaaga oid albomlar majmuasi, urush va mehnat qahramonlari badiiy ijod ko'rgazmalari);
- Amaliy ish usullari (sayohatlar, ekskursiyalar, sport musobaqlari, olimpiadalar va tanlovlardan, shanbaliklar, turli to'garaklar, texnika ijodi) va boshqalar.

Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlardan shakllari shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan ifodalanganadi. Bu muammolarni ijobiy hal qilish uchun auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlardan tizimida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliv ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir talabavoschlarning betakror va o'ziga xosligani hurmatlash;

- Milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish,

- O'qituvchilar va talabalar orasidagi o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish.

Talabalarning aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy, nafosat, ekologik, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan shakllangan kishilar qilib tarbiyalash dars jarayonida boshlanadi, biroq talabalarning kundalik o'sib borayotgan ehtiyojlari, qiziqishlarini faqatgina dars jarayonida olib borib bo'lmaydi. Bunday ko'p qirrali qiziqishlarni auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlardan uzviy bog'lash asosidagina qondirish mumkin.

Auditoriyadan tashqari ishlardan talabalar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning



dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishga, axloqiy kamol toptirishga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyat, ishlab chiqarish bilan bog'lashga zamin yaratadi.

Auditoriyadan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri talabalar jamoasining xilma-xil ishlarini qanday yo'lga qo'yishlariga bog'liqdir. Auditoriyadan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki har xil xarakterdagi talaba-yoshlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning qiziqishlari, mayillari, tashabbuslari asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayotiga olib kiradi. Auditoriyadan tashqari ishlar shaxsragi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong va axloq odatlarini tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, klub, adabiy va muassasa teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonliklar koferensiyalari va munozaralari, siyosiy, axloqiy, madaniy, ma'naviy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy foydali mehnat, siyosiy axborot, bayram kechalari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.

Talabalarning auditoriyadan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki auditoriyadan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi.

Talabalar auditoriyadan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan munosabatga kirishadilar, turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham talabalarning auditoriyadan tashqari faoliyatlar qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sish saviyasi yuqori bo'ladi. Ular orqali talabala jamoada ishslashni o'rGANADILAR, ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga hissa qo'shadilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharifi uchun kurashishga odatlanadilar. Bu esa talabalardagi yetakchilik qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Jamoada shakllangan yetakchi-talabalar o'z jamoasi uchun haqiqiy ma'nodagi boshliq-rahbar bo'la oladi.

Auditoriyadan tashqari faoliyat orqali olinadigan *siyosiy axborotlar* talbalarda mamalakatimiz va chet ellarda muhim siyosiy ijtimoiy voqyealar bilan tanishtirib borish imkonini beradi. Bu axborot har haftada o'tkaziladi. Siyosiy axborotlar o'tkazish uchun avvalo mavzular tanlash katta ahamiyatga ega.

*Kublar* – yoshlarning turli xil qiziqish, istak va xohishlarini qondirish, qobiliyatlarini o'stirishni ko'zda tutuvchi ommaviy ixtiyoriy birlashmadir. Ularning to'garaklardan farqifaoliyat darajasining kengligi va ko'p qirraligidir. Bir klubda 10-15 ta to'garakni va ommaviy ishlarni tashkil qilish mumkin.

*Ilmiy jamiyat*larning klublarga nisbtan ish ko'lami yanada keng, faoliyati xilma-xildir. Ilmiy jamiyat ham talabalarning qiziqishlari asosida tashkil qilinadi. Asosiy maqsad, vazifa talabalarning fan, texnika va san'atga bo'lgan qiziqishlarini qondirish, mustaqil fikrash qobiliyatlarini o'stirish, nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va amalda sinab ko'rish, talabalar e'tiborini ilmiy taddiqot ishlarga jalb qilishdan iborat.

*Maxsus to'garaklar* – talabalarni amaliy ko'nikma va bilimlar bilan qurollantiradi, kasbiy bilimlarini oshiradi.

**XULOSA.** Bu auditoriyadan tashqari faoliyatlarda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari oshadi. Shaxsiy sifatlaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyklarini namoyon qiladilar va yetakchi sifatida o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari talaba-yoshlarning yetakchilik qobiliyatini muntazam rivojlantirish ishlarni amaliyatga tadbiq etish uchun har bir pedagog har bir darsda talabalarning tashkilotchilik va tashabbuskorlik faoliyatini kuzatib, rag'batlantirib borishi lozim.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Xolbekov A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi. – T.: “Akademiya”, 2008.
2. Xuseynov B.M. O'zbekiston Respublikasi “Kamolot” YoIH a'zolarida zamonaviy liderlik qobiliyatlarini shakllantirish. – T.: 2009.
3. Raximova D. Bekmurodov M. Liderlik va tashkilot madaniyati. –T.: “Akademiya”, 2006.
4. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrash. – T.: «Fan» nashriyoti, 2003
5. Internet ma'lumotlari.



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI TINISH BELGILARINI ISHLATILISHI  
BILAN TANISHTIRISH METODIKASI**

**Sharapova Gulshanda Sharifovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998913094809)

**Annotatsiya:** Kichik yoshdagi o'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqida ishlatilishi va o'rnini ko'rsatadi. Tinish belgisi fikrni to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi.

**Kalit so'zlar:** Punktuatsiya, sintaksis, nutq, nuqta, so'roq, undov, his-hayajon, buyruq.

Ma'lumki, punktuatsiya tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qoidalar yig'indisidir. „Punktuatsiya ham yozuv kabi kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi“. Boshlang'ich sinflarda to'rtta tinish belgisi: gap oxirida nuqta, so'roq, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli, undalmali gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan tinish belgilari kam bo'lishiga qaramay, o'qituvchi har bir sinfda tinish belgilari ustida muntazam ish olib borishi zarur.

1-sinf o'quvchilari savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq va undov belgilari bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar „Alifbe“ o'qimasalar ham, rasmga qarab gap tuzadilar. O'qituvchi ularga talaffuzda bir gap boshqasidan to'xtam (pauza)

bilan ajratilishini, gapning oxirida ovoz pasavishini tushuntiradi. Bolalar, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, 3-5 gapli kichik matnni gaplarga ajratadilar va ular o'rtaisdagi to'xtam (pauza) qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga ishonch hosil qiladilar. Ular gapni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgana boshlaydilar. Bu gap oxiriga nuqta qo'yilishi bilan tanishtirish uchun mazmuniy va intonatsion asos yaratadi.

Bir necha darsdan so'ng o'quvchilar gaplarni o'qiy boshlaydilar. Ular nuqta pasaytirish, pauza qilishga belgi ekanini tushunadilar. Kesma harflardan gap tuzishda albatta nuqtali kartochkalardan foydalilanadi. O'quvchilar gapni yozganda o'qituvchi nuqta qo'yishni eslatadi, ishni tekshiradi. Gapning oxiriga nuqta qo'yilmasa, xato hisoblanadi. O'quvchilar o'qituvchi yordamida nima uchun nuqta qo'yish lozimligini tushuntiradilar. Shunday yo'l bilan gapning oxiriga nuqta qo'yish ko'nikmasi shakllantiriladi. So'roq va undov belgilari bilan ham savod o'rgatish davridayoq tanishtiriladi. Bolalar so'rash mazmunini bildirgan gaplarni o'qiydilar. O'quvchilar bunday gaplarni ohangga rioya qilgan holda, ya'ni gapning oxirida ovozni ko'tarish bilan o'qishga o'rgatiladi. Gapning mazmuni va intonatsiyasi so'roq belgisini qo'yishni talab etadi. Undov belgisini qo'yishni o'quvchilar gapning his-hayajon ifodalashi va alohida ohangda o'qilishi bilan bog'laydilar.

O'quvchilar 2-sinfda „Gap“ bo'limi mavzularini o'rganish jarayonida nuqta, so'roq va undov belgisi haqida nazariy tushunchalar oladilar.

3-sinfda esa tinish belgilari haqidagi nazariy tushunchalar chuqurlashtiriladi.

Shu vaqtan boshlab o'quvchilar gap oxiriga tinish belgilari sintaktik asosda qo'yilishini anglay boshlaydilar. „Darak gap“ mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda nuqta qo'yilishi, „So'roq gap“ mavzusi bilan bog'liq holda so'roq belgisi va

„Undov gap“ mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda undov belgisining qo'yilishi o'rgatiladi. 4-sinfda o'quvchilar „Gapning uyushiq bo'laklari“ mavzusi o'rganilganda sanash ohangi bilan bog'langan bo'laklarda vergulning vazifasi bilan tanishadilar. O'qituvchi ikki gapni o'qib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini ko'rsatadi. Masalan, *Biz ona tilimizni sevib o'rganamiz* (Gap oxirida ovoz pasayadi, pauza qilinadi).

O'quvchilar uyushiq bo'lakli gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarning *ammo, lekin, biroq* so'zлari bilan bog'langanda vergulning ishlatilishini ham amaliy o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar har xil mashqlarni ishslash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadilar. Savod o'rgatish davridayoq o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini vergul, tire, ikki nuqtaning ishlatilishiga qaratadi, matnni o'qiganda bu tinish belgilariga rioya qilishni o'rgatadi. Masalan, *Olma, olcha, nok - meva. Kitob — bilim bulog'i*.

Ona tili darslarida so'zlarni guruhlash mashqlarini bajarganda, o'qituvchi I sinf o'quvchilarini tire va ikki nuqtaning qo'yilishi bilan amaliy tanishtiradi. O'qituvchi aniq misollar bilan sanab



ko’rsatilgan so’zlardan oldin ikki nuqta qo’yilishini, har bir so’zning vergul bilan ajratilishini ko’rsatadi. Bunda o’quvchilar tinish belgining nomini aytadilar, o’qituvchi eslatmasa ham, ulardan asta-sekin foydalana boshlaydilar. Matnni yozishdan oldin punktuatsion xatoning ham oldi olinadi. Shunday qilib, o’qituvchi o’quvchilarda punktuatsion ziyoraklikni o’stirib boradi.

Xulosa: Ona tili darslarini o‘qish darslari bilan bog’lash sintaksis va punktuatsiya elementlari ustida ishlashning metodik shartlaridan biri hisoblanadi. o’quvchilar bu darslarda sintaksis sohasidagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o‘qish, so’zni aniq ishlatalish, o ‘z fikrlarini grammatick to‘g‘ri shakllantirishga o’rganadilar. Shunday qilib, boshlang’ich sinf o’quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og’zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishni ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G’ulomova “Ona tili o’qitish metodikasi”
2. Internet ma’lumotlari



## FARZAND TARBIYASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA MILLIY QADRIYATLAR

Tursunova Dildora Abdulhoshimovna  
Turg'unova Latofat Abdumatalibovna

Namangan viloyati Namangan tumani  
30 - sonli maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda farzand tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati, bolalarning zamonaviy texnologiyalar, telefon va internet bilan munosabati, ularning zararli va foydali jihatlari, bu jarayonda pedagogning vazifasi haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, pedagogika, millat, zamonaviy texnologiyalar, telefon, internet, oila, vatan, tarbiya, jamiyat, ta'lif, farzand, o'quvchi.

Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumta'lim mакtablarida o'quvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyati o'z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas'uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir.

Ma'nан yetuk inson millat qadriyatlarni to'g'ri baholashga va uni yanada rivojlantirishga hissa qo'shadi. Insoniyat taqdiri va kelajagi jamiyatda mavjud ongli fuqarolarning hatti-harakatlariga bog'lik ekanligi bugungi global sharoitda yana bir bor o'z tasdig'ini topmoqda. Zotan, ongli fuqarolarni jamiyatga tayyorlab berish biz pedagoglar zimmasidagi sharaflı masuliyatdir. Bunda esa albatta, pedagogik mahoratga tayaniladi. Pedagogik mahoratlilik o'z fanini chuqur biluvchi, yuqori, yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish; zamon talablariga mos ravishda ilm-fan yoki kasb-hunar sirlarini mukammal o'zlashtirishga yordam berish demakdir.

Ma'naviy qadriyatlар-bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo'lib, insonni o'rabi olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta'lif tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlар ijtimoiy tarixiy hodisani ifodalaydi. Umuman aytganda bugungi yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashdan maqsad, ta'lif-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy salohiyatini ko'tarishga xizmat qilishdir.

Qadriyatlар ta'rifidan kelib chiqib umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin. Umuminsoniy qadriyatlар-millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq holdagi qadriyat shaklidir. Umuminsoniy qadriyatlар millatning tarixini yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati orqali namoyon bo'ladi. Ta'lif jarayonida umuminsoniy qadriyatlар ijtimoiy-tarixiy hodisani ifodalaydi.

Qadriyatlар mazmunan xilma-xil turlarga bo'linib, hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biror narsanining qadr-qimmati haqida so'zlashga hojat ham yo'q. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi.

Asrlar mobaynida farzand tarbiyasi haqida ko'plab ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, manaviy va axloqiy qarashlar, fikrlar shakllangan. Farzandlarimiz ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun:

- Vatanga, ota-onaga, o'tgan avlodlariga hurmat, muhabbat tushunchalari va tasavvurlarini kengaytirish;

- burch, vijdon, insof, mas'uliyat haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish;

- do'stlik, o'rtoqlik, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish hal qilinishi kerak bo'lgan dastlabki vazifadir.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalariga kirib kelgan va hayotimizni usiz tasavvur qila olmaydigan zamonaviy texnologiyalarning farzandlarimiz tarbiyasiga ta'siri haqida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Yosh avlod uchun zamonaviy texnologiya, avvalo uyali telefon va internetdir. Ta'lif jarayonida ham bu texnologiyalar yordamga keladi albatta. Tajribali pedagoglar bu jarayonda o'quvchiga internet tarmog'idan qidirib topish mumkin bo'lgan malumotlarni



berishdan qochib, bola ruhiyatiga ijobjiy ta'sir qiladigan, tarbiyaviy ahamiyatga molik tushunchalar orqali yangi bilimlar berishi yoki aynan olingan malumotlarni saralab, kerakli qisminigina o'rgatishi lozim.

Farzandlarimiz har tomonlama yetuk salohiyatga ega bo'lib voyaga yetishlari uchun, albatta, zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilishlari shart. Zamonaviy texnologiyalarning foydalarini sanasak, ular juda ko'plab, lekin har bir narsaning foydasi bilan birga zararli jihatlari ham topiladi. Misol uchun internet yoki oddiy boshqa dasturlarni ochib, endigina malumot izlay boshlagan yoki malumot almashayotgan bolalarga undagi behayo suratlar-u, bemani reklamalar qanday ta'sir qilishini dasturchilar o'ylab ko'ryaptimi? Bundan tashqari turli hil internet qimor o'yinlari, bir-birini o'ldirish, so'yishni targ'ib qiladigan telefon o'yinlari va ilovalari, reklama va videolar bola ruhiyatiga juda yomon ta'sir qiladi. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda (hatto, diniy kanallarda xam) videolar orqali turli vahima mavzularda “buni o'zingiz ko'rmasangiz bo'lmaydi,...balo yopirilib kelmoqda;....domla chidolmadi, ...otvet qildi, ...bu dahshat” kabi vahimali gaplar farzandlarimizga betgachoparlikni, “munosib otvet qilish”ni, besabrlikni o'rgatib qo'ymayapmizmi? Bu kabi holatlarni ko'rgan farzandlarimiz kelajakda bizdan “o'rnak” olib, ortig'i bilan javob qaytarishini unutmasligimiz lozim. Bu narsalarning oldini olishda esa bolalarni ruhan sog'lom, manan yetuk qilib qilib tarbiyalash lozim va bunda bizga ta'lim tizimi yordamga keladi. Milliy tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, adabiyot, etika, estetika, pedagogika, psixologiya kabi fanlardan foydalanadi.

Ulamolarimiz “Boshinga qanday balo kelsa ham o'zingning qilmishingdan deb bil”, -deb takidlaydilar. Zero, kelgusida farzandlarimizni zamonaviy texnologiyalar qurshovida qo'yib, insoniylik, olıyanoblik kabi yuksak insoniy tuyg'ulardan benasib qilib qo'ymaylik va ularga ta'lim-tarbiya berishda milliyligimizni saqlagan holda yondoshaylik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. S.P.Baranov.”Pedagogika”-T.:” O'qituvchi”, 1990.
2. Najmiddinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. – Toshkent: “Adolat”, 2016.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA TASHKIL QILISH

**Ubaydullayeva Muslima Abdullaxat qizi**

Andijon viloyat, Andijon tumani  
56-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda interfaol usulda matematika darslarini o'quvchilarga yetqazish hamda matematik masalalarini innovatsion usulda o'qitish haqida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** Matnli masalar, matematik tushunchalar, arifmetik amallar, sodda masalalar, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodi.** Kichik guruhlarda ishlash orqali o'rganish - ma'lum muammoning yechimini topishga va o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan darsdagi ijodiy hamkorlikdagi ish. Bosqichlari: guruhlarga bo'lish, muammoni guruhlarda muxokama qilish, muammoning yechimlari taqdimoti, xulosalash. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish Bu yondashuvda kichik guruhlар 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiyl xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish

**Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi.** 1976-yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiyl topshiriqning bajarilishiga o'z hissasini qo'shami. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishslash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o'quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarni, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanib, yangi bilimlarning o'zlashtirishiga bog'liq bo'ladi.

Mavjud bilimlar va fikrlash qobiliyatlar tadbiq qilinishi jarayonida mustahkamlanib boradi. Masalalarni shakllantirishda aniq material bo'lgan holda nazariyani amaliyot bilan o'qitishni turmush bilan bog'lab olib borish imkonini beradi. O'quvchi masalalarini yechayotganda ko'p matematik tushunchalar aniq hayotda odamlarning tajribasida o'z ildizi ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media – ta'lim metodlaridan iborat.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqlashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim



jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz:

Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi

Mashg'ulot oxirida bolalarga topishmoq, hikoya va masalani qaytadan tuzish uchun nima qilish kerakligini o'yash taklif etiladi. O'rgatishning bu bosqichida birinchi mashg'ulotda bolalar qo'shish hamda ayirishga oid masalalarni echadilar, qo'shish va ayirishga oid masalalar ketma-ket tuziladi. Javobni sonlar o'rtasidagi bog'lanishdan va munosabatlarni tushunchaga asoslanib topadilar.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan matematika darslarida turli xil masalarga keng joy ajratilgan. Sababi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyati uning tushunchalarni tezda anglab olish ko'nikmasini sahkllantirishda masalalarning o'rni beqiyos sanaladi. O'qituvchi esa dars jarayonida o'tiladigan masalarni o'quvchiga to'g'ri va aniq yetkazib berishda yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lmosg'i hamda darslarni qiziqarli o'yinli texnologiyalar orqali tashkil etib o'quvchilarni darsga qiziqtira olishi muhim omil sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
2. Tolipov O'.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Fan". 2005.



## “СўФИ ОТА” МЕЬМОРИЙ ЁДГОРЛИГИ

Азиза Умматова Абдурашидовна  
Андижон вилояти Балиқчи тумани  
9-умумий ўрта таълим мактабининг  
тарих фани ўқитувчиси

Ўзликни англаш – тарихни билишдан бошланади. Бугунги кунда ўтмишни ўрганиш, Ватанимиз бағрида ястаниб ётган осори-атиқалар, бўйлари кўкка етгувчи миноралар, мухташам саройлар-у, тенгсиз гўзалликка йўғрилган обидалар, тилсиз мақбаралар, улуғвор жомеъ масжидларни ўрганиш кечагидан ҳам барчани қизиқишини уйғотган. Андижон вилоятидаги ҳам кўплаб меъморий ёдгорликлар бисёр бўлиб, ҳукуматимиз томонидан уларни келажак авлодга етказиши борасида саъи-ҳаракатлар олиб борилаяпти.

Андижон вилоятининг Балиқчи тумани-вилоятнинг шимолий-ғарбий қисмида жойлашган бўлиб, 1926 йил 29-сентябрда ташкил этилган. Наманган вилоятининг Норин тумани, Андижон вилоятининг Улуғнор, Шахрихон, Бўстон, Избоскан, Олтинкўл туманлари билан чегара дош. Балиқчи тумани аҳолиси таркиби асосан ўзбеклар, шунингдек, руслар, татарлар, тожиклар, уйғурлар ва бошқа миллат вакилларидан иборат. Балиқчи ҳам қишлоқ (ҳозирда шаҳарча) ҳам туман маркази ҳисобланади. Туман марказидан 2,5-3 км узоқликда Гулистон қишлоғи жойлашган. Қишлоқнинг ғарбий қисмида Қорадарё оқиб ўтади. Дарё бўйларини кишилар қадимдан ўзлаштиришга киришганлар Гулистон қишлоғи собиқ совет даврида “Правда колхози” дейилган. Бу қишлоқнинг халқ ичидаги яна бир номи “Гайтопос” бўлиб, бу ном икки ҳил маънода қўлланилган.

1.”Гайтопос”- “гадой ҳам топа олмайдиган” қишлоқ дейилишига сабаб, туман марказидан бир оз олисда, чекка худудда жойлашганлигиdir.

2.”Гайтопос”-гадой ҳам топилмайдиган қишлоқ дейилишига сабаб, қишлоқ аҳолиси қадимдан дехқончиликка усталиги учун мўл-қўл ҳосил етиштириб, ҳеч ким оч-наҳор, гадой бўлмаганлиги учундир.

Мана шу қишлоқда “Сўфи ота” мақбараси, зиёратгоҳи ва шу ном билан аталувчи жомеъ масжид и қад ростлаган. “Сўфи ота” мақбараси шу ном билан аталувчи қабристоннинг ўртасида жойлашган. Қадимда “Сўфи ота” маҳалласида яшаган аҳоли Сўфи ота қабрини ўз ичига олган мақbara бунёд этишган.. Бу мақbara ҳозирги кунга қадар қад ростлаб турибди. Маҳаллий аҳоли бу мақбарани атрофларини тозалаб таъмирлаб туришган. Бу мақbara маҳаллий аҳоли томонидан XVIII асрнинг охирларида, яъни 1780-йилда бунёд этилган. Мақbara қимматли архитектура ёдгорлиги бўлиб, унинг қурилишида пишган ва ҳом ғишт, ёғоч, тош ҳамда бетондан фойдаланилган. Бугунги кунда давлат муҳофазасига олинган маданий мерослардан биридир.

Сўфи ота ўзи ким? Сўфи ота XIV-XV асрларда яшаган етти азиз-авлиё оға-иниларнинг энг катталари бўлиб, улар Сўфи ота, Мирвали пошшо, Қурбон азиз бува, Гойиб бува, Даҳя ота, Қилич Бурхон бува, Тойлоқ ота ҳамда сингиллари Тузлоқ момолардир. Бу азиз-авлиёларнинг жойланиши тартиби ҳам ажабланарлидир. Ҳар бири бир зиёратгоҳ бўлиб, улар орасидаги масофа, бир ҳилда яъни бир-биридан узоқлиги 2, 5 - 3 километрни ташкил этади. Масалан, Сўфи ота билан Қурбон азиз бува жойлашган худуд худди шу масофада 2, 5- 3 километр узоқликда бўлиб, Қурбон азиз бува ҳозирда Наманган вилояти Норин тумани Чўза қишлоғида жойлашган. Қурбон азиз бува ва Даҳя ота оралиғи ҳам худди шундай узоқликда жойлашган. Даҳя ота ҳозирда Наманган вилояти Наманган тумани Жийдакапа қишлоғида жойлашган. Бошқа оға-инилар оралиғи ҳам шундай жойлашган. Сўфи ота ҳақида қишлоқ оқсоқоллари сўзларига кўра, бу етти оға-инилар Туркистандан илм ўргатиш мақсадида бу ерларга келган . Улар Ҳожа Аҳмад Яссавий муридларидан бўлган . Сўфи ота Гайтопос “Гадойтопмас” қишлоғи марказида сўлим булоклар атрофида яшаган. Сўфи ота илм-урфонли, тўғрисиз, ҳалол соддадил, кароматгўй, Аллоҳга яқин инсон бўлганлиги учун маҳаллий аҳоли “Сўфи ота ” деб мурожаат қилишган. XVIII асрнинг 50-йилларида, яъни 1750-1756 йилларда Сўфи ота мақбараси ва қабристони олдида шу ном билан аталувчи масжид бунёд этилади. Масжид Андижон вилоятидаги энг қадимийларидан биридир. Масжид қурилишига Намангандан усталар жалб этилган. Масжид ҳашар йўли билан қурилган. “Сўфи ота ” масжиди ва мақбараси маданий Мерослар рўйхатига киритилган.



Сўфи ота мақбараси масжиди Ўзбекистон Республикаси Маданият ва спорт ишлари вазирлиги Маданий мерос обьектларини мухофаза килиш ва улардан фойдаланиш давлат инспексияси томнидан рўйхатга олинган. Давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисида Гувоҳнома серияси ЎЙ, тартиб рақами № 282000, бино ва иншоотларга серияси ТА тартиб рақами № 0839401 Қишлоқда 1930-йилгача еттита масжид бўлган. Совет даври сиёсати туфайли уларнинг олтитаси бузуб ташланади. Сўфи ота масжиди ўша даврда “Правда” колхози раиси Матқосимов Акбаралининг оқилона ҳаракати билан масжидда жамоа қўйларини боқадиган қўйхона қилиш орқали сақлаб қолади. Мустақиллик йилларида “Сўфи ота” мақбараси ва масжиди қайтадан таъмирланади. 2020 йилга келиб “Сўфи ота” мақбараси янги услубда таъмирланди.

Биз тарихни ўрганиш билан бирга, уни келажак авлодларга бенуқсон етказишимииз ҳам лозим.



## ОБ АКТУАЛЬНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Азимова Динара Собитхоновна

учитель начальных классов

общеобразовательной школы №3,

Туракурганского района Наманганской области

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы по использованию информационно-коммуникативных технологий на уроках русского языка в начальных классах, а также эффективного их применения совместно с другими методами обучения.

**Ключевые слова:** информационные технологии, активизация познавательной сферы учащихся, презентация.

В современном обществе, когда информация становится высшей ценностью, а информационная культура человека - определяющим фактором их профессиональной деятельности, изменяются и требования к системе образования, происходит существенное повышение статуса образования.

Реформирование системы народного образования в Республике Узбекистан определило основные направления перестройки традиционного учебного процесса. В нем все активнее начинают использоваться новые информационные и коммуникативные технологии.

